

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 91 (1152), 2024-yil 11-may, shanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz



CHARM VA IPAK SANOATINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI KO‘RIB CHIQLDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 10-may kuni charm va ipak sanoatini rivojlantirish, aholi bandligini ta‘minlash masalalari muhokamasi bo‘yicha videosektor yig‘ilishi o‘tkazildi.

Mamlakatimizda ko‘plab yirik investitsiya loyihalari amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, tez fursatda ish o‘rni va eksport bo‘limi yaratadigan, yuqori daromad keltiradigan kichik va o‘rta korxonalar ham kerak. Bu borada eng katta imkoniyat mahalliy sanoat tarmoqlarida.

So‘nggi yillarda bu yo‘nalishlarda tadbirkorlik uchun keng sharoit yaratildi. Masalan, charmga ixtisoslashgan 16 ta kichik sanoat zonasi tashkil qilindi. Yangi loyihalar uchun 40 million dollar arzon resurs berildi.

O‘tgan yili charm sanoatida ishlab chiqarish hajmi qariyb 3 trillion so‘mga yetgan. Lekin shuning yarmi Andijon va Farg‘ona viloyatlariga to‘g‘ri kelgan. Teri xom-ashyosi ko‘p bo‘lgan Qoraqalpog‘iston, Buxoro, Jizzax, Surxondaryo va Xorazmda bu ko‘rsatkich past.

Tarmoq eksportida birlamchi mahsulot o‘rni yuqori, tayyor mahsulot ulushi atigi 30 foiz atrofida. Terini qayta ishlash darajasi ham yetarli emas. Bunda chorvachilik klasterlaridan to‘la foydalanilmayapti.

Shu bois, endi “O‘zcharmsanoat” uyushmasi faoliyati o‘zgartirilib, bu tarmoqqa Xalq banki birlashtirildi. Viloyat hokimlari bilan birgalikda charmga ixtisoslashgan kichik sanoat zonalarida 100 million dollarlik loyihalar shakllantirildi.

Shuningdek, Sharof Rashidov va Ohangaron tumanlarida charm klasterlari tashkil qilindi. Ularda suv tozalash inshooti va bino qurish uchun 40 million dollar arzon resurs yo‘naltirildi. Loyihalariga tabiiy va sun‘iy chardan mahsulot chiqaruvchi xorijiy brendlar jalb etiladi. Buning uchun soring kompaniyalariga sarflangan korxonalar xarajatining 30 ming dollargacha qismini qoplab berish yo‘lga qo‘yiladi.

Chorvachilik klasterlariga ozuqabop ekin uchun yer hamda zotli qoramol uchun kam foizli kreditlar ajratiladi.

Yig‘ilishda ipakchilik tarmog‘i ham atroflicha tahlil qilindi.

Oxirgi yillarda bu yo‘nalishda ham klaster tizimi joriy etildi. Jumladan, 74 ta pilla-ipakchilik klasteri va 11 ta urug‘chilik korxonasi tashkil qilindi. Tut maydonlari 40 ming gektardan 55 ming gektarga kengaydi. Bularning natijasida pilla yetishtirish hajmi 2,5 barobar oshib, 26 ming tonnaga yetdi, ipak mahsuloti eksporti 3 barobar ko‘paydi.

Lekin ipak qurtini parvarishlash, kasallikdan saqlash agroteknikasi yetarlicha rivojlanmagan. Oqibatda pilla olishda yo‘qotish nisbatan ko‘p.

Asosiy eksport haligacha xom-ashyo bo‘lib qolyapti. Shu bois, pillani chuqur qayta ishlash va tayyor mahsulot hajmini, mato va uy tekstili quvvatlarini ko‘paytirish zarurligi ta‘kidlandi. Bu orqali dunyoda ipak mahsulotlari importining 45 foizi to‘g‘ri kelayotgan Yevropa bozorida o‘rin olish kerak.

Pillachilikka eng dolzarb masala — ozuqa. Buning uchun yangi navli hosildor tut ekishni kengaytirish zarur. Shuningdek, paxta maydonlari chetiga bir-ikki qatorndan tut ekilsa, qo‘shimcha ozuqa manbai yaratiladi.

Hokimlarga yangi tuzorlar tashkil qilish uchun 105 ming gektar yer ajratish topshirildi. Bu yerlar lotlarga bo‘linib, aksion orqali aholiga beriladi, auktsionda yerning boshlang‘ich narxi 10 foiz etib belgilanadi. Band bo‘lmagan aholi, jumladan, ayollar monomarkazlar va pillachilik klasterlarida qisqa kurslarda o‘qitiladi.

Shu paytgacha pillaning xarid narxi kamligi uchun odamlarda manfaatdorlik past edi. Prezidentimizning kuni kecha imzolangan

ipakchilikni rivojlantirishga oid farmoniga ko‘ra, pillaning xarid narxi 25 foizga oshirildi. Pilla korlar daromad va ijtimoiy soliqlardan ozod qilindi, tuzorlar uchun yer solig‘ining 10 foizi to‘lanadigan bo‘ldi.

Tarmoqda samaradorlikni oshirishning yana bir yo‘li — muqobil usullarni qo‘llash. Masalan, Xitoyda kanakunjut qurtini parvarishlab, ipak olish keng yo‘lga qo‘yilgan. Bu yangi yo‘nalishni o‘zimizning iqlim sharoitimizga moslab, tatbiq etish mumkin.

O‘simliklar karantini va himoyasi agentligiga kanakunjut o‘simligi hamda qurti urug‘larini olib kelib, Ipakchilik institutida sinovdan o‘tkazish topshirildi.

Hokimlar va soha mutasaddilariga pilla mavsumini sifatli tashkil etish bo‘yicha qator topshiriqlar berildi.

Aholi bandligi va mahalliy sanoatda gilam ishlab chiqarishning ham o‘rni bor. O‘tgan yili bunday korxonalar markazlashgan holda polipropilen olib kelish yo‘lga qo‘yilgan o‘z samarasini berdi. Bu tajriba davom ettirilib, mablag‘ ikki karra ko‘paytirilishi, valyuta tushumigacha bo‘lgan vaqt inobatga olinib, tadbirkorlarga polipropilen 1 yilgacha muddatga berilishi aytiladi.

Yig‘ilishda davlatimiz rahbari ushbu sanoat tarmoqlaridagi tadbirkorlar bilan ochiq muloqot qildi. Ularning muammolari va takliflari asosida mutasaddilarga Yevropa sertifikatini olishda tadbirkorlarga ko‘maklashish, xorijiy mutaxassislarni jalb qilish, chet ellardagi savdo uylarida milliy charm, gilam va ipak mahsulotlarini ham joylashtirish, malakali o‘rta bo‘g‘in xodimlarini tayyorlash va boshqa masalalar bo‘yicha ko‘rsatmalar berildi.

Kun tartibidagi ikkinchi masala — Sayxunobod tajribasining joylardagi ijrosiga qaratildi.

Bu boradagi ishlar natijasida aprel oyining o‘zida 365 ming aholi bandligi ta‘minlangan va tadbirkorlikka jalb qilingan. Banklar o‘z mijozlarining muammolarini hal qilib, 115 ming kishining ish bilan ta‘minlanishiga sharoit yaratgan. Mahallalarda 70 mingta mikroloyiha amalga oshirilgan. 465 ming gektar tomorqaga ekin ekilgan.

Lekin ayrim hududlarda sustkashliklar ham bor. Masalan, o‘rganish o‘tkazilgan 7 ta tumanda o‘nlab tomorqalarda mahsulot ekilmagan.

Sustkashlikka yo‘l qo‘ygani uchun tuman darajasidagi 382 nafar mas‘ullar ishdan olingani ma‘lum qilindi.

Prezidentimiz bandlik va aholi daromadi masalasi birlamchi ahamiyatga ega ekanini yana bir bor ta‘kidlab, barcha darajadagi rahbarlarni ogohlantirdi.

Sayxunobod tajribasi borasidagi ishlarni tuman va mahalla kesimida sifatli tashkil etish, aholiga doimiy ish o‘rni va daromad manbai yaratish bo‘yicha vazifalar ko‘rsatib o‘tiladi.

Mahallalardagi yana bir muhim masala — tartibli va xavfsiz mehnat migratsiyasi.

Joriy yilning to‘rt oyida 115 ming nafar xorijda ishlayotgan fuqarolar yurtimizga qaytib kelgan. Yil oxirigacha yana 250-300 ming nafari qaytishi kutilmoqda. Ularni ishga joylashtirish, ijtimoiy masalalariga ko‘maklashish muhimligi ta‘kidlandi.

Mutasaddilarga migratsiya bo‘yicha yagona axborot platformasini yaratib, “mahalla yetiligi” tizimi bilan integratsiya qilish vazifasi qo‘yildi.

Muhokama qilingan vazifalar yuzasidan tarmoq va hududlar rahbarlarining axboroti eshitildi.

O‘ZA

QISHLOQ XO‘JALIGI SOHASIDAGI TAKLIFLAR TAQDIMOT QILINDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 10-may kuni qishloq xo‘jaligini iqlim o‘zgarishiga moslashtirish, yerlardan samarali foydalanish va sohani ilmiy rivojlantirishga qaratilgan takliflar taqdimoti bilan tanishdi.

Mamlakatimizda 3 million gektar yaylov va ekin yerlari degradatsiyaga uchragan, 2 million gektarga yaqini turli darajada sho‘rlangan. Xorijiy ekspertlar iqlim o‘zgarishi sababli 2030-yilga borib, mintaqamizda suv resurslari qariyb 6 foizga qisqarishini aytmog‘da. Buning choralarini hozirdan ko‘rish zarur.

Shu bois, qishloq xo‘jaligida iqlim o‘zgarishiga moslashish va sohaning iqlimga salbiy ta‘sirini yumshatish bo‘yicha 52 banddan iborat milliy dastur ishlab chiqildi. Dastur doirasidagi chora-tadbirlarga 294 million dollardan ortiq grant mablag‘lari jalb qilish nazarda tutilgan.

Jumladan, Orolbo‘yida 1 million gektardagi agroekologik landshaftlar hamda degradatsiyaga uchragan yaylovlar holati yaxshilanadi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Xorazm, Buxoro va Qashqadaryo viloyatlarida ihotazorlar barpo qilinadi. Suv ta‘minoti og‘ir yerlarda qizilmiya, na‘matak, kunjut, artemiya yetishtirish yo‘lga qo‘yiladi.

Iqlim o‘zgarishini tahlil va bashorat qilishga oid markaz tuzilib, 5 ta viloyatda agrometeorologiya stansiyalari o‘rnatiladi. Shuningdek, Italiya bilan hamkorlikda Intensiv urug‘chilik va ko‘chatchilik xalqaro markazi, sho‘rga va suvsizlikka chidamli ekinlar bo‘yicha urug‘chilik xo‘jaligi tashkil etiladi. Suvni tejash masalasi, ayniqsa, Amudaryoning quyi mintaqasida dolzarb. Shu bois, yana bir hujjatga ko‘ra, Qoraqalpog‘istonda yerni lazerli tekislash xarajatlari uchun subsidiya ajratish rejalashtirilmog‘da. Ya‘ni paxta, boshloq don va sholi yetishtiruvchilarga lazerli tekislangan har bir gektar maydonga sarflangan yoqilg‘i-moylash materiallari xarajati 100 foizgacha qismini qoplash uchun Davlat byudjetidan subsidiya beriladi.

Birinchi bosqichda bu To‘rtko‘l, Beruniy va Amudaryo tumanlarida amalga oshiriladi. Bunday maydonlarda hosildorlik o‘rtacha 5-7 sentnerga oshadi va suv sarfi 15-20 foiz tejaladi.

Akademik M.Mirzayev nomidagi bog‘dorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiy-tadqiqot institutining

O‘ZA

yer maydonlaridan samarali foydalanish rejaları ham bayon qilindi.

Xususan, institutning Bandixon ilmiy-tajriba stansiyasidagi 142 gektar yer qaytadan foydalanishga kiritiladi. 300 gektar maydonda suv tejaydigan zamonaviy texnologiyalar o‘rnatilib, eksport bo‘limi va uzumzorlar barpo etiladi.

Qiziltepa tumanidagi Navoiy ilmiy-tajriba stansiyasida uzum ko‘chatchiligi bo‘yicha tajriba xo‘jaligi tashkil etilib, Fransiya va boshqa davlatlarning eksport bo‘limlari ko‘chati olib kelinadi. Har ikki stansiyada suv ta‘minotini yaxshilash uchun energiya tejamkor nasos agregati va transformator o‘rnatiladi.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining uzluksizligida issiqxonalar alohida o‘rni bor. So‘nggi yillarda ularning maydoni 2,6 baravar, mahsulot yetishtirish hajmi 3 baravardan ziyod oshgan. Ushbu tarmoqda 80 ming aholi doimiy va 70 ming nafari mavsumiy ish bilan band.

Issiqxona xo‘jaliklarining samaradorligini oshirish maqsadida xorijdan malakali agronom, entomolog va laboratoriya mutaxassislarni jalb qilish xarajatlarining 50 foizini, ko‘mir qozoni sotib olish xarajatlarining 20 foizgacha qismini qoplash taklif etilmog‘da.

Davlatimiz rahbari har doim sohani ilmiy rivojlantirish talabini qo‘yadi. Shu maqsadda Tolali ekinlar ilmiy-tadqiqot instituti faoliyatini tashkil etish taklifi bildirildi.

Institutda yangi yo‘nalishdagi tolali ekinlar bo‘yicha tadqiqot ishlari yo‘lga qo‘yiladi. Tarmoqda ilmiy natijalarga asoslangan yangi texnologiyalar, asbob-uskunalar joriy etiladi. Fan va ishlab chiqarish samarali bog‘lanib, paxta-to‘qimachilik korxonalarini rentabelligi ortadi. Paxta, kanop va zig‘ir xomashyolaridan olinadigan mahsulotlarning xalqaro standart talablariga mosligi ta‘minlanadi.

Prezidentimiz bu takliflarni takomillashtirib, manzilligini va natijadorligini ta‘minlash bo‘yicha ko‘rsatmalar berdi.

INVESTITSIYAVIY HAMKORLIK BO‘YICHA VAZIFALAR IJROSI VA KELGUSI REJALAR MUHOKAMA QILINDI

Prezident Shavkat Mirziyoyevga xorijiy sheriklar bilan investitsiyaviy hamkorlik bo‘yicha erishilgan kelishuvlar ijrosining borishi va kelgusi rejalar yuzasidan hisobot berildi.

Rossiya, Xitoy, Qatar, Saudiya Arabistoni va boshqa mamlakatlar bilan birgalikda amalga oshirilayotgan kooperatsiya loyihalari va investitsiya dasturlariga alohida e‘tibor qaratildi.

Ma‘lumki, 22-24-aprel kunlari Toshkent shahrida “Innoprom. Markaziy Osiyo” xalqaro sanoat ko‘rgazmasi bo‘lib o‘tdi. Ushbu tadbir Rossiya Federatsiyasi bilan muvaffaqiyatli savdo-iqtisodiy hamkorlikka moyin soidir.

2023-yil yakunida mamlakatlarimiz o‘rtasidagi tovar ayirboshlash qariyb 10 milliard dollarga yetdi.

Ushbu ko‘rsatkichni 2030-yilga qadar ikki barabarga ko‘paytirish maqsad qilingan. O‘zbekistonda 3 mingdan ortiq qo‘shma korxonalar muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda. 2023-yilda 700 dan ziyod yangi korxonalar tashkil etildi. O‘tgan yili Rossiyaning 3 milliard dollarga yaqin investitsiyalari o‘zlashtirildi

bo‘lsa, joriy yilda bu ko‘rsatkich 5 milliard dollar bo‘lishi kutilmoqda.

Umuman, “Innoprom” doirasida 4 milliard dollarlik bitimlar to‘plamini imzolandi. 2-3-may kuni esa dunyoning 93 ta mamlakatidan 2,5 ming mehmon ishtirokida Toshkent xalqaro investitsiya forumi bo‘lib o‘tdi. Uning doirasida o‘tgan ishbilarmonlik tadbirlari yakunida umumiy qiymati 26,6 milliard dollarlik investitsiya bitimlari va eksport shartnomalari imzolandi.

Ular orasida qurilish, “yashil” energetika, tog‘-kon sanoati, infratuzilma, oziq-ovqat, to‘qimachilik sanoati va sog‘liqni saqlash sohasidagi yirik loyihalar bor.

Forum natijalari bo‘yicha xorijiy hamkorlar bilan imzolangan investitsiya va savdo bitimlarini amalga oshirish borasida “yo‘l xaritasi” ishlab chiqildi. Unda barcha bosqichlar, muddatlar va mas‘ullar aniq

belgilandi. Shuningdek, forumda hamda Prezident huzuridagi Xorijiy investorlar kengashi yig‘ilishida xorijiy investorlar tomonidan bildirilgan taklif va tashabbuslarni joriy qilishga oid “yo‘l xaritasi” ishlab chiqilgan.

Davlatimiz rahbari hisobotni tinglab, “yo‘l xaritasi”larining barcha bandlari o‘z vaqtida va to‘liq amalga oshirilishi ustidan qat‘iy nazorat o‘rnatish, investorlar bilan doimiy muloqot qilib, ular uchun maksimal darajada qulay sharoitlar yaratish, loyihalarni amalga oshirish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan masalalarni tizimli hal etib borishni topshirdi.

Mutasaddilarga to‘rtinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumiga tayyorgarlikni hozirdan boshlash, iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarida istiqbolli loyihalar to‘plamini shakllantirish vazifasi qo‘yildi.

O‘ZA

MAHALLALARDA BANDLIKNI TA‘MINLASH VA MEHNAT MIGRATSIYASINI TARTIBLI TASHKIL ETISH CHORALARI MUHOKAMA QILINDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev huzurida mahallalarda bandlikni ta‘minlash va mehnat migratsiyasini tartibli tashkil etish masalalari bo‘yicha yig‘ilish o‘tkazildi.

Bandlik va aholi daromadini oshirish — davlatimiz siyosatining ustuvor yo‘nalishi. Shu maqsadda ko‘plab iqtisodiy-ijtimoiy dasturlar amalga oshirilmog‘da. Yangi-yangi loyihalar ishga tushirilmog‘da. Tadbirkorlik va o‘zini o‘zi band qilishga keng yo‘l ochilgan.

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan barcha hududlarda Sayxunobod tajribasi amalga oshirilayotir. Mutasaddilar bu boradagi ishlarning tuman va mahallalar kesimidagi ijrosi yuzasidan axborot berdi.

Qayd etilganidek, har bir mahallaga iqtisodiy kompleks tashkilotlari rahbarlari birlashtirildi. Ular u yerdagi kambag‘al oilalar bilan manzilli ishlab, odamlarning daromadini oshirishga ko‘maklashmog‘da. Buning uchun arzon kreditlar, subsidiya va imtiyozlar yo‘naltirilyapti.

Agrosanoat mutaxassislari bilan birga, aholi tomorqalarida sardaromad ekinlar ekilyapti.

Prezidentimiz ishlar hamma joyda ham birdek tashkil qilinmayotganini ko‘rsatib o‘tdi. Bugungi murakkab vaziyatda odamlarni ishli va daromadli qilishning yagona yo‘li ichki imkoniyatlarni to‘la safarbar etish ekanini ta‘kidlandi.

Fuqarolarni chet elda ishlashga tartibli va xavfsiz jo‘natish, yurtimizga qaytganlarning bandligini ta‘minlash ham muhim vazifalardan. Shu bois, Bandlik vazirligi huzuridagi Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi faoliyati isloh qilingmog‘da. Barcha hududlarda “Xorijga ish — mahalladan” tamoyili yo‘lga qo‘yilmog‘da.

Yetarli malakasi bo‘lmagan fuqarolar kasb-hunarga qo‘shimcha o‘qitiladi, xorijlik ish beruvchilar talabiga qarab maqsadli

tayyorlanadi. Shu asosida yaqin muddatlarda 150 ming kishi daromadi yuqori mamlakatlarga yuborilishi mo‘ljallangan.

Mehnat migratsiyasidan qaytgan fuqarolarga ham alohida e‘tibor qaratiladi. Sayxunobod tajribasi asosida ularga tomorqada mahsulot yetishtirish, tadbirkorlikni oshishga tashkiliy-moliyaviy ko‘mak beriladi.

Davlatimiz rahbari fuqarolarga sifatli xizmat ko‘rsatish, bandlikni ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha ko‘rsatmalar berdi.

Migratsiya bo‘yicha yagona axborot platformasini yaratib, “mahalla yetiligi” tizimi bilan integratsiya qilish, xorijda qiyin vaziyatga tushib qolgan yurtdoshlarimizga ko‘maklashish zarurligi ta‘kidlandi.

O‘ZA

O‘zbekiston tashabbuslari — amalda

YANGI O‘ZBEKISTONNING GENDER SIYOSATI yorug‘ istiqbol sari tashlangan dadil qadam

Bugungi globalashuv davrida mamlakatlarining taraqqiyot darajasida baho berishda gender tenglikni ta‘minlashda erishilayotgan natijalarga alohida e‘tibor qaratilmog‘da. Bu bejiz emas. Zero, gender tenglik har bir insonning asosiy huquqlaridan biri o‘laroq jamiyatni barqaror rivojlantirishda muhim o‘rin tutadigan mezon. Shu bois, taraqqiyotning yuksak cho‘qqisini ko‘zlab ilgariylayotgan har bir davlat siyosatida bu masala hamisha ustuvor o‘rin egallaydi.



Davomi 3-betda

Yangicha tizim

Shu kunlarda to‘rtta odam yig‘ilgan joy borki, elektr energiyasi va gaz narxi oshgani eng ko‘p muhokama qilingan mavzulardan biriga aylandi. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlarda bu borada turli fikr, keskin mulohazalar bildirildi. Masalaning asl mohiyati yuzaga qalqiy boshlagach, ayrimlarning hovuri ham bosilgani bor gap.

TEJAMKOR XONADONGA NARX OSHGANI SEZILMAYDI

Tan olish kerak, bu o‘zgarish davlat byudjetidan ajratilgan subsidiya asosida oyog‘ida tik turgan, infratuzilmasi modernizatsiya qilinishga tobora muhtoj bo‘lib borayotgan tarmoqlar uchun zarur edi. Bu haqda quyida batafsil to‘xtalamiz. Dastlab elektr energiyasi va gaz narxi oshishi belgilangan qaror mohiyatiga to‘xtalib o‘tsak.

2024-yil 16-aprelda Vazirlar Mahkamasining “Yoqilg‘i-energetika

sohasida bozor mexanizmlarini joriy etishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. Iste‘molchilarni yoqilg‘i-energetika resurslari bilan ishonchli tarzda ta‘minlash, aholi xonadonlarida qayta tiklanuvchi energiya manbalari o‘rnatilishini va energiya tejavchi texnologiyalar keng joriy etilishini rag‘batlantirish, yoqilg‘i-energetika resurslari narxlarini shakllanishini bosqichma-bosqich bozor tamoyillariga

o‘tkazish jarayonini davom ettirish belgilandi.

Shuningdek, qarorga ko‘ra, 2024-yil 1-maydan O‘zbekistonda elektr va gaz uchun tariflar oshirildi, energiya iste‘moli uchun ijtimoiy normalar joriy etildi. Belgilangan me‘yorgacha elektr energiyasi yoki gaz nisbatan arzon narxda, ushbu me‘yordan yuqori bo‘lsa, bozor narxlarida sotiladi.

Davomi 4-betda



Munosabat

OLYIY TA'LIM ISLOHOTLARI

BU TIZIMNI ADOLATLI YO'LGA QO'YISH, YOSHLARGA VA OTA-ONALARGA YETKAZISH ZARUR

Yaqinda Prezidentimiz huzurida oliy ta'lim yo'nalishlarini optimallashtirish, qabul va malaka tizimlarini takomillashtirish bo'yicha takliflar taqdimoti muhokama qilindi.

To'lqin TESHABOYEV, iqtisodiyot fanlari doktori, professor



Yangi o'quv yili oldidan oliy ta'limni yangi bosqichga ko'tarishga bag'ishlangan mazkur taqdimot ta'lim sifatini oshirish, kvotalarni to'g'ri yo'naltirish, grantlarni taqsimlashda adolatni ta'minlash va yoshlarning o'z ustida tinimsiz ishlashi uchun istiqbolli dastur bo'ldi. Oliy ta'limni yangi O'zbekiston taraqqiyotiga poydevor bo'ladigan, xalqimizni rozi qiladigan adolatli tizimga aylantirish hammanimizning bosh maqsadimiz bo'lmog'i lozimligi e'tirof etildi.

Ilgari davlat granti asosida o'qishga kirgan talaba "Grantga kirganman, o'qisam-o'qimasam, diplom olaman" degan xayolda bo'lishi mumkin edi. Endi xalqaro talabalar asosida yanada ochiqlik, shaffoflik tamoyillari bilan ta'lim takomillashadi. Grantda o'qiyotgan talabalar kredit modulida o'zlashtirish ko'rsatkichlari past qayd etilsa, u egallab turgan grant imtiyozini yanada yaxshiroq o'zlashtirgan boshqa talabaga o'tkazib beriladi. Bu jarayon nafaqat talabalarni o'qishga jalb qiladi, balki sog'lom raqobat muhitini ham shakllantiradi.

Oliy ta'lim muassasalarida ilgari muayyan yo'nalishda ikkita grant ajratilgan bo'lsa, yangi o'quv yilidan boshlab yuqori ball to'plagan abituriyentlarga o'z yo'nalishi bo'yicha ko'proq grant o'rinalari beriladi. Bu esa minglab iqtidorli, bilimli yoshlarning o'qishga kirishini kafolatlaydi.

Keyingi yillarda maktabgacha ta'lim qamrovi darajasi 27 foizdan 72 foizga, oliy ta'lim esa 9 foizdan 42 foizga oshdi. O'z navbatida, islohotlar samarasi o'laroq, oliygohlarimiz soni 77 tadan 212 taga yetdi. Ya'ni OTMLar soni 2,5 barobar ortdi. Sohada raqobatni qo'llab-quvvatlash va xususiy sektorni jalb qilish orqali xorijiy

oliygohlar filiallari va nodavlat oliygohlar soni ko'paydi.

Mamlakatimizda yiliga 200 mingdan ziyod yosh diplom olib, mehnat bozoriga kirib kelmoqda. Oliy ta'limni kadrlar qancha ko'paysa, ularga ish o'rni yaratish shuncha ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

Taqdimotda yuksak investitsion jozibadorlik, yaratilgan qulay tadbirkorlik va biznes muhiti evaziga yiliga 3 mingdan ziyod sanoat korxonasi tashkil etilib, 146 ming yangi ish o'rni yaratilmoqda, biroq 25 mingdan ziyod muhandis va texnologga ehtiyoj borligi aniqlangan ta'kidlanadi.

Bu yo'nalishda 33 ta davlat oliygohida kadrlar tayyorlanishi, ta'lim sifati talab darajasida emas. Ilg'or xorijiy universitetlarda allaqachon to'xtatilgan ayrim fan va mutaxassisliklari hali ham o'qitilmoqda. O'quv reja va dasturlarining qariyb yarmi mehnat bozori va xalqaro standartlarga javob bermaydi.

Mazkur masalalarga yechim sifatida taqdimotda bitiruvchi kadrlarning ish bilan bandligini ta'minlash, mutaxassisligidan kelib chiqib ish o'rinalari yaratish, kvotalar ajratish bo'yicha iqtisodiy tahlillarga e'tibor qaratildi.

Bugungi kunda bakalavriatda 306 ta yo'nalish, magistraturada 625 ta mutaxassislik borligi, ammo ularning ayrimlari xalqaro standartlar va zamonaviy mehnat bozori talablariga javob bermasligi, malaka tavsifini takomillashtirish va qo'shimcha qiymat yaratishga urg'u berildi.

Ta'lim sifatini oshirish islohotlarida dekanatlar o'rni beqiyos, chunki ular iqtidorli talabalar guruhini tuzish, faoliyatini nazorat qilish va fakultet bo'yicha iqtidorli talabalarni ilmiy darajaga ega o'qituvchilarga fiktivlabirib faoliyat yurituvchi tuzilma. Fakultetda iqtidorli talabalarni aniqlash bo'yicha kafedraga takliflar kiritib, yuqori reyting baliga ega talabalarni iqtidorli talabalar guruhiga o'tkazishni muvofiqlashtiradi.

Prezidentimiz dekanatlar maqsad-vazifalarini yanada kuchaytirish, ta'lim jarayonlarini raqamlashtirish, dekanatlar va boshqa ma'muriy tuzilmalarni optimallashtirishga e'tibor qaratdi. Binobarin, 2024-2025-o'quv yili boshlangunga qadar o'quv jarayonlarini to'liq qayta ko'rib chiqib, yangi tizimni joriy etish bizning ustuvor vazifamizga aylandi.

Keyingi asosiy masala oliy ta'limga qabul qilish tizimini yanada adolatli tashkil qilish va davlat grantlarini iqtidorli yigit-qizlarga yo'naltirish, hozirgi qabul tizimi, kvotalar taqsimlanishi raqobatni to'liq ta'minlamayotganidir. Bu muamмога ham alohida e'tibor qaratilib, ayrim abituriyentlar yuqori ball to'plashda, topshirgan oliygohning kvotasi soniga qarab o'qishga kirolmay qotishi mumkinligi misol keltirildi.

Shuningdek, taqdimotda Prezidentimiz bu tizimni adolatli yo'lga qo'yish, yoshlarga va ota-onalarga yetkazish zarurligiga e'tibor qaratdi.

Muxtasar aytganda, qabul kvotalarini ish beruvchi talabalariga mos holda, ular bilan kelishuvga erishib, oliy ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi asosida tashkil etishimiz, shu bilan birga, nafaqat milliy mehnat bozorida, balki xalqaro mehnat bozorida raqobatlasha oladigan, kasb-hunar va yuqori malaka tavsifiga ega vatanparvar kadrlarni tayyorlash ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Davlat xalq uchun

MOJAROLI HUDUDLARDAN FUQAROLARNI REPATRIATSIYA QILISH TAJRIBASI

inson huquqlarini ta'minlashning amaliy ifodasi

Xudoyor MELIYEV, adliya vaziri o'rinbosari

Bugun dunyoning deyarli barcha mamlakatlari kibermakondagi terrorizm bilan to'qnashmoqda. Internet radikal g'oyalarni tarqatish, terrorchilik harakatlarini moliyalash, rejalashtirish va sodir etish vositasiga aylanmoqda. Shunday murakkab sharoitda tobora ortib borayotgan global va mintaqaviy xavfsizlikka tahdidlarga qarshi kurashish yo'lida dunyo hamjamiyatining sa'y-harakatlarini birlashtirish muhim ahamiyatga ega.



Bunday sharoitda davlatlarning terrorizm maqsadlarida raqamli texnologiyalardan foydalanishga qarshi samarali kurashish sohasidagi salohiyatini rivojlantirish g'oyat muhim.

BMT ma'lumotlariga ko'ra, 60 dan ortiq davlatdan 43 mingdan ziyod inson "Iroq va Shom islom davlati" (ISHID) va boshqa terrorchi guruhlarga safoga qo'shilish uchun Suriya va Iroqqa yo'l olgan. 2019-yil mazkur tuzilma hududiy mag'lubiyatga uchraganidan buyon o'n minglab erkak, ayol va bola hamon Suriya shimoli-sharqidagi gumanitar, xavfsizlik va inson huquqi bilan bog'liq vaziyat og'irliklarga qolayotgan lager va qamoqxonalarda saqlanmoqda.

Xorijiy terrorchi jangchilarning xalqaro tinchlikka tahdidiga javoban BMT Xavfsizlik kengashi tomonidan 2014 va 2017-yillarda qabul qilingan rezolyutsiyalarga asosan, a'zo davlatlar xalqaro huquqqa muvofiq, vatanga qaytgan yoki u davlatdan bu davlatga ko'chib o'tgan xorijiy terrorchi jangchilar va oila a'zolarini qonuniy sudlov yo'li bilan ta'qib etish, reabilitatsiya va reintegratsiya qilish bo'yicha aniq, keng qamrovli maxsus va kompleks strategiyalarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish borasida qator sa'y-harakatlarni amalga oshirib kelmoqda. Ayniqsa, bu borada O'zbekistonning amaliy ishlari xalqaro hamjamiyat e'tibori va e'tirofiga sazovor bo'lmoqda. Ushbu yo'nalishda, avvalo, 2018-yilda O'zbekistonning terroristik, ekstremistik yoki boshqa taqiqlangan tashkilot va guruhlarga qarshi kurashish bo'yicha respublika idoralararo komissiyasi tuzildi.

Davlatimiz rahbarining 2018-yil 19-sentyabrda "Terroristik, ekstremistik yoki boshqa taqiqlangan tashkilot va guruhlarga qarshi kurashish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini jinoiy javobgarlikdan ozod etish tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi farmoniga muvofiq, 2018-yil 1-noyabrdan bunday fuqarolarini komissiya xulosasiga asosan jinoiy javobgarlikdan ozod etish tartibi joriy etildi.

Voyaga yetmaganlar va yoshlar o'rtasida ekstremizm va terrorizm g'oyalari tarqalishining oldini olish, uzoq muddat xorijda bo'lgan fuqarolarni bunday g'oyalardan ta'siridan himoyalash, internet tarmog'idan ekstremistik va terrorchilik maqsadlarda foydalanishga qarshi kurashish 2021-2026-yillarga mo'ljallangan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy strategiyasining ustuvor yo'nalishlari etib belgilandi.

Mazkur yo'nalishda normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqilishida Adliya vazirligi ham ishtirok etdi. Bunda, avvalo, har qanday vaziyatda ham O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining huquq va manfaatlarini himoya qilish nuqtayi nazaridan yondashildi. Jabr ko'rgan har bir fuqaroning kelgusida o'z o'rnini topishi hamda ularga barcha sharoit va imkoniyatlarni yaratish maqsadida qonun hujjatlariga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi.

O'zbekistonning mojaroli hududlardan o'z fuqarolarini repatriatsiya va reintegratsiya qilish bo'yicha "Mehr" operatsiyalari terrorizm va tahdidlarga qarshi kurashish sharoitida inson huquqlarini ta'minlashning yorqin ifodasi sifatida xalqaro hamjamiyatga namuna bo'lib xizmat qilmoqda.

Xususan, 2019-yildan boshlangan "Mehr 1, 2, 3, 4, 5" operatsiyalari doirasida Suriya, Iroq va Afg'onistonda og'ir ahvolda tushib, chorasiz qolgan 531 nafar ayol va bola mamlakatimizga olib kelindi. Repatriatsiya qilingan shaxslar qaytib kelgach, birinchi navbatda, ayollar va bolalar reabilitatsiyadan o'tkazildi, so'ngra ularning oilalari va jamoalariga tinch (qayta) integratsiyalashuviga ko'maklashish bo'yicha aniq choralar ko'ridi.

Bir vaqtlar turmush o'trog'i yoki otasi qistovi yoxud ta'siri ostida "olovli nuqtalar"ga borib qolgan, bugun esa davlatimiz sa'y-harakatlari bilan vatanga qaytarilgan bu insonlar mamlakatimiz, bag'rikeng xalqimiz g'amxo'rli va e'tibori ostida tinch-ohangda hayot kechirmoqda. Hayotga yangicha ko'z, yangicha yondashuv bilan qaramoqda.

Mutaxassislar fikricha, repatriantlarni reabilitatsiya va reintegratsiya qilish mukammal jarayon, unga qator soha vakillarini jalb etish zarur. Shuningdek, reabilitatsiya va reintegratsiya doimiy ravishda xalqaro va mintaqaviy tajriba almashishni talab qiladi. Bu davlatlarning repatriatsiya bo'yicha kelgusi sa'y-harakatlari, jumladan, jinoiy javobgarlikka tortiladigan shaxslar bilan bog'liq murakkabroq holatlar inobatga olinganda juda muhim. Zero, tajriba almashish, xalqaro va mintaqaviy ekspertlar faoliyatini muvofiqlashtirishni kuchaytirish ushbu yo'nalishdagi qadamlarni takomillashtirishga xizmat qiladi.

Mazkur holatlar inobatga olgan holda, Prezidentimiz 2022-yil 3-mart kuni Toshkentda bo'lib o'tgan yuqori darajadagi "BMT Global aksiterror strategiyasini amalga oshirish bo'yicha qo'shma harakatlar rejasini doirasida Markaziy Osiyo mamlakatlarining mintaqaviy hamkorligi" xalqaro konferensiyasida BMTning Aksiterror boshqarmasi shafeligida Markaziy Osiyo mamlakatlarining yetakchi mutaxassislari orasidan Mintaqaviy ekspert kengash ta'sis etishni taklif qilgan edi.

Kengashning asosiy vazifasi radikal g'oyalarni ta'siriga tushib qolgan fuqarolarni reabilitatsiya va reintegratsiya qilish dasturlarini takomillashtirish hamda mamlakatlarimizda terrorizm targ'ibotiga qarshi kurashish bo'yicha takliflar ishlab chiqishdan iborat. Ayni shu maqsadda joriy yilning 14-may kuni Markaziy Osiyo mamlakatlarida amalga oshirilayotgan ishlar bo'yicha o'zaro tajriba almashish, ular o'rtasida samarali mintaqaviy hamkorlikni yo'lga qo'yish va milliy dasturlarni takomillashtirish maqsadida Toshkent shahrida harbiy mojaro hududlaridan qaytgan shaxslarni reabilitatsiya va reintegratsiya qilish bo'yicha Markaziy Osiyo mintaqaviy ekspertlar kengashining birinchi yig'ilishi bo'lib o'tishi kutilyapti.

Tadbirda sog'liqli saqlash, ijtimoiy ta'minot va ta'lim sohalarida reabilitatsiya va reintegratsiya masalalari bo'yicha fuqarolik jamiyati tashkilotlari yondashuvlari, Markaziy Osiyoda BMT Global aksiterror strategiyasini amalga oshirish bo'yicha qo'shma harakatlar rejasini reabilitatsiya bo'yicha keng qamrovli va maqsadli dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish, shuningdek, fuqarolik jamiyatining repatriantlar reintegratsiyasidagi barqaror ishtirokini ta'minlash masalalari muhokama qilindi.

BMT Bosh Assambleyasi 78-sessiyasida taqdim etilgan va xorijiy hamkorlar tomonidan bir ovozdan qo'llab-quvvatlangan mazkur tashabbus mintaqaviy hamkorlikni institutsionalashtirishning noyob tajribasini ifodalaydi va sohadagi qo'shma faoliyat samaradorligini oshirishga ko'maklashadi. BMT shafeligida xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar ishtirokida Mintaqaviy ekspertlar kengashining birinchi yig'ilishi o'tkazilayotgani O'zbekistonning ushbu yo'nalishdagi siyosati jahon hamjamiyati tomonidan e'tirof etilganidan dalolat beradi.

Dunyo nigohi

O'ZBEKISTON — MINTAQA BARQARORLIGI, TARAQQIYOTI VA FAROVONLIGINING ASOSIY ISHTIROKCHISI

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 8-may kuni Moskva shahrida kuzatuvchi davlat rahbari sifatida Oliy Yevroosiyo iqtisodiy kengashining yubiley majlisida ishtirok etdi.

Majlisda ko'p tomonlama savdo-iqtisodiy hamkorlikni yanada kengaytirish, sanoat kooperatsiyasi loyihalarini qo'llab-quvvatlash, ustuvor yo'nalishlarda qo'shma dasturlarni amalga oshirishning dolzarb masalalari ko'rib chiqildi. O'zbekiston Prezidentining Oliy Yevroosiyo iqtisodiy kengashining navbatdagi majlisidagi ishtiroki va unda bildirgan takliflari xalqaro ekspertlar qiziqishiga sabab bo'lmoqda. Tahlil doiralari vakillariga ko'ra, O'zbekiston yetakchisi takliflarining hayotga tatbiq etilishi nafaqat O'zbekiston, balki YOIIga a'zo mamlakatlar iqtisodiyoti rivojlanishiga ham xizmat qiladi.

Su CHAN, Xitoy Ijtimoiy fanlar akademiyasining Rossiya, Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo instituti yetakchi ilmiy xodimi:

Xitoylik ekspertlar Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi (YOII) makonidagi o'zgarishlarni alohida e'tibor bilan kuzatmoqda. O'zbekiston Prezidentining YOII yubiley sammitidagi nutqi katta qiziqish uyg'otdi.

Davlatimiz rahbari O'zbekiston va YOII o'rtasidagi o'zaro tovar ayirboshlash hajmi, birinchi navbatda, sanoat mahsulotlari yetkazib berish hajmi oshgani, milliy valyutada to'lovlar ulushi ortgani, shuningdek, yuk tashish hajmi ko'payganini ta'kidlaydi.

O'zbekiston ijobiy iqtisodiy o'sish dinamikasini saqlab qolish, shuningdek, transchegaraviy va xalqarasavdoni rivojlantirish bo'yicha islohotlarni faol davom ettirmoqda. Savdo va yuk tashishni raqamlashtirish, elektron tijorat va iqlim masalalari bo'yicha shahar loyiha va dasturlarda ishtirok etish o'zaro savdo shartlarini sezilarli darajada yaxshiladi.



Mingdan ortiq qo'shma korxonada tashkil etilgan bunga yorqin misol bo'la oladi. O'zbekiston rahbari sanoat kooperatsiyasi loyihalari va xaridorligi mahsulotlar ishlab chiqarishni mahalliy lashtirish dasturlarini qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratdi.

Yan CHJUNXUN, Suvon universitetining MDH va Rossiya ishlari bo'yicha tadqiqotchi-professori (Janubiy Koreya):

So'nggi yillarda O'zbekiston ikki va ko'p tomonlama hamkorlik kun tartibidagi dolzarb mavzular bo'yicha faol muloqotga intilayotgan pragmatik davlat sifatida dunyoga yangi qiyofasini namoyish etmoqda.

O'zbekistonning YOII yubiley sammitida kuzatuvchi davlat sifatida ishtirok etishini Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbuslarini MDH iqtisodiy makonida amalga oshirishning mantiqiy davomi sifatida baholash mumkin.

Davlatimiz rahbarining bugungi voqealar rivojida mintaq mamlakatlari o'rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalarni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, hamkorlik loyihalarini ilgari surish, o'zaro investitsiyalarni ko'paytirish uchun sharoit yaratish muhim ahamiyat kasb etishi haqidagi fikriga to'liq qo'shilaman.

Ishonchim komilki, O'zbekiston va YOII o'rtasidagi o'zaro manfaatli hamkorlik sanoat mahsulotlarini yetkazib berish, yangi transport-logistika yo'nalishlari, yuk tashishni raqamlashtirish, elektron tijorat, "yashil" texnologiyalar va ekologiya kabi muhim yo'nalishlarda ulkan salohiyatga ega.

Rasmiy Toshkentning "Belarus — Rossiya — Qozog'iston — O'zbekiston — Afg'oniston — Pokiston" multimodal yo'nalishini rivojlantirish tashabbusi alohida e'tiborga loyiq. Bu yuk tashishni tez, tejankor va xavfsiz amalga oshirish imkonini beradi.



Ayjan IBIJANOVA, G'arbiy Qozog'iston agrar-texnika universitetining Iqtisodiyot va audit oliy maktabi direktori:

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish, sanoat kooperatsiyasi loyihalarini qo'llab-quvvatlash va Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi doirasida o'zaro investitsiyalar hajmini oshirish uchun shart-sharoit yaratish muhimligiga e'tibor qaratdi. Mamlakatimiz rahbari an'anaviy "Innoprom" xalqaro ko'rgazmasining O'zbekiston va Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi davlatlari o'rtasida biznes muloqotini rivojlantirishda samarali platforma sifatidagi ahamiyatini, shuningdek, boshqa hamkor mamlakatlar



kompaniyalarini jalb etish uchun ushbu platformani kengaytirishdan manfaatdorligini ta'kidlaydi. O'zbekiston yetakchisi, shuningdek, o'zaro muddatli istiqbolga mo'ljallangan qo'shma tadbirlarning yangi kompleks rejasini ishlab chiqishni taklif qildi. YOII loyihalarida kuzatuvchi davlatlarning to'liq ishtirokini tartibga

mamlakatlarimiz uchun katta siyosiy ahamiyatga ega.

O'zbekiston Markaziy Osiyodagi barqaror va jadal rivojlanayotgan davlatdir. Ta'kidlash kerakki, rasmiy Toshkent mintaq barcha qo'riqli, taraqqiyot va farovonligini ta'minlovchi asosiy ishtirokchi hisoblanadi. Hech kimga sir emaski, Prezident Shavkat Mirziyoyevning sa'y-harakatlari tufayli mintaq davlatlari bilan siyosiy muloqot faollashdi, o'zaro ishonch va qo'llab-quvvatlash mustahkamlandi.

soluvchi mexanizmni tezroq qabul qilish sharti bilan ushbu reja samarali amalga oshirilishiga ishonch bildirdi.

Sammitda sanoat kooperatsiyasi loyihalari va ishlab chiqarishni mahalliy lashtirish dasturlarini qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratildi. Bundan tashqari, O'zbekiston rahbari "Shimol — Janub" xalqaro transport yo'lagini rivojlantirish kabi bir qator muhim jabbhalarda hamkorlikni kengaytirish zarurligiga e'tibor qaratdi.

Bundan tashqari, Prezident Shavkat Mirziyoyev Oliy Yevroosiyo iqtisodiy kengashi majlisidagi nutqida O'zbekistonning YOII bilan hamkorlikdagi pozitsiyasi va barcha ishtirokchilar manfaatli yo'lida qo'shma tashabbuslarni amalga oshirish bo'yicha faol ishlashga tayyorligini alohida ta'kidlaydi.

Bugungi kunda O'zbekiston yuklar tranziti markazi sifatida alohida ahamiyatga ega. Aytish joizki, Yevroosiyo iqtisodiyotining rivojlanishi mintaq davlatlarining sa'y-harakatlarini birlashtirish muqarrarligini taqozo etmoqda. Shu nuqtayi nazardan, Transafg'on va Xitoy — Qirg'iziston — O'zbekiston temir yo'li loyihalarining qurilishi mamlakatimizning Yevroosiyo logistika infratuzilmasidagi rolini yanada oshiradi.

O'ZBEKISTON TASHABBUSLARI — AMALDA

YANGI O'ZBEKISTONNING
GENDER SIYOSATI

YORUG' ISTIQBOL SARI TASHLANGAN DADIL QADAM

Ozoda PARPIBOYEVA,
Oila va xotin-qizlar
qo'mitasi raisi

Boshlanishi 1-betda

Mamlakatimizdagi demokratik islohotlar jarayonida gender tenglikni ta'minlashning qonunchilik va institutsional negizini mustahkamlash yo'lida muhim choralar ko'rdi. Jamiyatimizda ayollarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, davlat boshqaruvidagi ishtirokini kengaytirish, ular uchun teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlash bo'yicha keng ko'lami ishlar qilinmoqda. Jumladan, xotin-qizlar huquqlari himoyasini tubdan kuchaytirish, turmush sharoitini yaxshilash, ta'lim olish va salohiyatini ro'yobga chiqarishi uchun keng imkoniyat yaratishga qaratilgan 40 dan ortiq me'yoriy-huquqiy hujjat ishlab chiqildi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda xotin-qizlar va erkaklar teng huquqligi, davlat xotin-qizlar va erkaklarga davlat boshqaruvi ishlarini, shuningdek, jamiyat hayotining boshqa sohalarida teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlashi belgilab qo'yildi. "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi hamda "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi qonunlar qabul qilindi. Qabul qilinayotgan barcha normativ-huquqiy hujjatlar majburiy gender-huquqiy ekspertizadan o'tkazish tartibi joriy etildi.

Ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy sohalarida xotin-qizlar hamda erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlash maqsadida 2030-yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi tasdiqlandi. Strategiyada boshqaruvda xotin-qizlar ishtirokini ko'paytirish, gender nomutanosiblikni kamaytirish, ta'lim olishga imkoniyat yaratish, xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlik va tazyiqqa qarshi kurash nazarda tutilgan.

Yangi tahrirdagi Mehnat kodeksida ayollar va erkaklar mehnat huquqlarining tengligi, mehnat va mashg'ulotlar sohasida kamситisni taqiyash, mehnat huquqlari ta'minlanishi va bu boradagi majburiyatlar bajarilishi kafolatlandi. Xotin-qizlarning mehnatiga haq to'lash masalasida ham teng munosabatda bo'lish bo'yicha normalar kiritildi. Shuningdek, 2023-yilda qonunchilikka genderni oid zo'ravonlikning oldini olish maqsadida oilaviy (maishiy) zo'ravonlik, shilqimlik hamda shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini kamситuvchi hamda inson hayotining sir tutiladigan tomonlarini aks ettiruvchi ma'lumotlarni oshkor qilish bo'yicha alohida moddalar kiritildi. Qonunchilik bilan ayollar mehnati to'liq yoki qisman qo'llanishi taqiqlanadigan mehnat sharoiti noqulay bo'lgan ishlar ro'yxati bekor qilindi. Oila kodeksida nikoh yoshi ayol va erkaklar uchun 18 yosh etib belgilangan to'g'risida norma kiritildi.

Prezidentimiz bu yo'nalishdagi islohotlarning mazmun-mohiyati haqida to'xtalar ekan, "Xotin-qizlar va oila

Ham oila, ham hayot
charog'boni

"Ayol o'ziga, uning o'rni oilada", "Ayol faqat uy yumushlari, farzand tarbiyasi bilan band bo'lishi kerak" degan tushunchalar ongimizga qattiq o'rnatilib olgani bois, yaqin-yaqingacha ayollarning biror idorada rahbar bo'lishiga ajablanib qarardik. Ammo hayot shiddati bu qarashlar taraqqiyotga to'siq ekanini yaqqol ko'rsatmoqda. Zero, tariximizdagi muhim evrilishlar jarayonida ham zukko bobolarimiz safida o'qila, uddaburon, tadbirkor momolarimizning o'rni bo'lgani manbalardan ma'lum. Ana shu tarixiy qadriyatlar va jahon tajribasidan kelib chiqib, keyingi yillarda ayollarni jamiyatdagi islohotlarga keng jalb etish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Xotin-qizlarning siyosiy faolligini oshirishga e'tibor qaratilib, Saylov kodeksiga siyosiy partiyalar tomonidan deputatlikka nomzodlar ko'rsatilayotgan nomzodlarning kamida 40 foizi yoki har 5 nafardan 2 nafari ayol bo'lishi zarurligi qonunchilikka mustahkamlab qo'yildi.

Xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini ta'minlash, oila institutini har tomonlama mustahkamlash bo'yicha davlat siyosatini samarali yuritish maqsadida eng quyi bo'g'in — mahalla va xonadongacha kirib boradigan vertikal tizim yaratildi. Oila va xotin-qizlarga oid davlat siyosatini yangi bosqichga olib chiqish, opa-singillarimizning muammolariga tizimli yechim topish, vakolati organlar faoliyatini samarali tashkil etish va muvofiqlashtirish maqsadida Oila va xotin-qizlar qo'mitasi hamda hududiy bo'linmalari tashkil etildi. Gender tenglikni ta'minlash siyosatini davom ettirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish hamda qo'llab-quvvatlash qo'mitaning asosiy vazifalaridan biri etib belgilandi. 9,5 mingga yaqin mahallada xotin-qizlar faoli lavozimi joriy etildi va unga davlat xizmatchisi maqomi berildi.



masalasi — bu nafaqat bugungi kunimiz, balki erangi kelajagimizni ham belgilab beradigan hal qiluvchi omildir. Agar biz mehr-oqibat va sadoqat timsoli, xonadonlarimiz farishtasi bo'lgan ayollarga bitta yaxshilik qilsak, hech shubhasiz, bu o'nta yaxshilik bo'lib qaytadi", degandi.

Tizimli islohotlar natijasida xotin-qizlarning davlat boshqaruvidagi ulushi 2017-yildagi 27 foizdan 35 foizga yetdi. Barcha davlat organlari va tashkilotlari, ustav kapitalida davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan hamda ularning tizimidagi tashkilotlar rahbarlarining kamida 1 nafar o'rinbosarini xotin-qizlar orasidan

tayinlash tizimi joriy etildi. Boshqaruv xodimlari orasida xotin-qizlar ulushini 2030-yilgacha 30 foizga yetkazish talabi davlat korxonalarining ijro organlari, shu jumladan, direktorlar va kuzatuv kengashlarining tarkibini shakllantirishda ham tatbiq etilishi belgilandi.

O'z navbatida, bu yutuqlar xalqaro miqyosda e'tirof etilmoqda. Jahon banki "Ayollar, biznes va qonun" indeksining 2024-yilda e'lon qilingan hisobotida 190 davlat orasida mamlakatimizda mehnat munosabatlari va oiladagi zo'ravonlikka qarshi kurash sohasidagi islohotlar muvaffaqiyatli deb topildi. O'zbekiston bu borada yaxshi natijaga erishgani e'tirof etildi. Shuningdek, indeksda gender tenglik borasida eng tez rivojlanayotgan 5 mamlakat qatorida qayd etilgan. 2023-yilda O'zbekiston Ochiq gender ma'lumotlar indeksida 69,7 ball to'plagan holda jahondagi eng yaxshi 20 mamlakat safidan joy oldi.

BMTning Barqaror rivojlanish yechimlari tarmog'i (SDSN) va xalqaro ekspertlar tomonidan 2023-yilda shakllantirilgan SDG indeks hisobotiga ko'ra, 166 mamlakat orasida 71,1 indeks bilan O'zbekistonning reytingdagi mavqei 8 pog'ona ko'tarilib, 69-o'rinni egalladi. "Open Data Watch" tashkilotining "Gender Data Compass" reytingida esa 37 ball to'plagan holda 185 mamlakat orasida 56-o'ringa loyiq ko'rdi. Bu ko'rsatkich va natijalarga o'z-o'zidan erishilayotgani yo'q, albatta. Bularning barchasi yurtimizda inson manfaatlarini barcha narsadan ustun qo'yib, uzoqni ko'zlab olib borilayotgan islohotlar mahsulidir.



Ayol huquqi doim himoyada

Yurtimizda ayollarning davlat va jamiyat hayotidagi faollashuv jarayoni izchil kechmoqda. Shu bilan birga, gender tenglikka to'siq bo'ladigan illatlar ham bor. Ayollarning tazyiq va zo'ravonlikka uchratilganiga bunga misol. Bu muammolarga qarshi kurashish maqsadida tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlangan xotin-qizlarni davlat himoyasiga olish, himoya orderi berish mexanizmi yaratildi. 2021-2023-yillarda 125 mingga yaqin xotin-qiz davlat himoyasiga olindi va himoya orderi bilan 4,4 trillion so'mdan ziyod mablag' yo'naltirildi. Oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash maqsadli jamg'armasi mablag'i hisobidan ijtimoiy himoyaga muhtoj 10,5 mingdan ziyod xotin-qiz 13 milliard so'mlik reabilitatsiya vositalari bilan ta'minlandi. 2137 nafariga jarrohlik amaliyoti va davolanish xarajati uchun 35,5 milliard so'm mablag' ajratildi.

Xotin-qizlar muammolarini hal etishga qaratilgan "Ayollar daftari" tizimi yaratildi. Ushbu tizim doirasida qariyb 3 million 397,5 ming xotin-qizga amaliy yordam ko'rsatildi. Buning uchun 4,4 trillion so'mdan ziyod mablag' yo'naltirildi. Oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash maqsadli jamg'armasi mablag'i hisobidan ijtimoiy himoyaga muhtoj 10,5 mingdan ziyod xotin-qiz 13 milliard so'mlik reabilitatsiya vositalari bilan ta'minlandi. 2137 nafariga jarrohlik amaliyoti va davolanish xarajati uchun 35,5 milliard so'm mablag' ajratildi.

Xususiy sektorda band bo'lgan ayollarga homiladorlik va tug'ish nafaqasini minimal



iste'vo xarajati miqdoridan kelib chiqib, byudjet mablag'idan to'lab berish tartibi yo'lga qo'yildi. Ijtimoiy sug'urta jamg'armasidan 2022-2023-yillarda salkam 15,9 ming ayolga 31,6 milliard so'mdan ko'proq homiladorlik va tug'ish nafaqasi to'lab berildi.

Ma'rifatli ona —
yurt iqboli

Buyuk davlat arbobi Indira Gandi "Bir qizni o'qitsangiz, butun millatni, butun jamiyatni, butun oilani o'qitgan bo'lar edingiz", deganida haq gapni aytgan edi. Zero, oramizda o'qimishli, ziyoli, zukko qizlarimiz qancha ko'p bo'lsa, kelajakda ular voyaga yetkazadigan farzandlar shuncha bilimli, keng dunyoqarashga ega va yuksak salohiyatli shaxs bo'lib voyaga yetadi. Shu bois, bugungi davr qanchalik murakkab va og'ir bo'lmasin, davlatimiz qo'shimcha imkoniyat topib, ijtimoiy sohalarini rivojlantirmoqda, xotin-qizlarning salohiyatini ro'yobga chiqarishi uchun sharoit yaratmoqda. Zero, Prezidentimiz ta'kidlaganidek, ayollarning, xususan, qiz bolaning o'qib, oliy ma'lumotli bo'lishi, kasb-hunar egallashi oila baxti, farzandlar kamoli uchun, shu asosda butun jamiyat ravnaqi uchun xizmat qiladi.

Shu maqsadda 2020-yildan boshlab ehtiyomand oilalar farzandi bo'lgan xotin-qizlarni davlat granti asosida oliy ta'lim muassasalariga qabul qilish tizimi joriy etildi. 2021-yildan esa mazkur grant o'rinlari soni ikki barobar oshirilib, 2 mingtaga yetkazildi. Natijada 2020-2023-yillarda 7 mingga yaqin xotin-qiz oliy ta'lim muassasalariga davlat granti asosida o'qishga qabul qilindi.

2022-yildan boshlab davlat oliy ta'lim muassasalari magistratura bosqichida o'qiyotgan barcha xotin-qizlarning kontrakt to'lovi qoplab berilishi va buning uchun davlat byudjetidan har yili kamida 200 milliard so'm ajratilishi belgilandi. 2022-2023-yilda magistratura o'qiyotgan 14 ming 300 dan ziyod talaba qizning 190 milliard so'mdan ortiq kontrakt puli to'lab berildi.

Mutaxassisligi bo'yicha kamida 5 yil mehnat stajiga ega, lekin oliy ma'lumotga ega bo'lmagan 500 nafar xotin-qiz har yili oliy ta'lim muassasalariga umumiy kvotadan tashqari, alohida test sinovlari natijalariga muvofiq o'qishga qabul qilish tizimi joriy etildi. Natijada 2022-2023-yillarda mingga yaqin xotin-qiz to'lov-kontrakt asosida oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilindi.

Oliy ta'lim muassasalari, texnikum va kollejlarda, sirtqi va kechki ta'limda o'qiyotgan xotin-qizlar kontraktlarini to'lash uchun 7 yilga foizsiz kredit berish tizimi joriy etildi. Ushbu tizim doirasida 181 ming 500 dan ziyod xotin-qizga 2 trillion 135 milliard so'mdan ortiq ta'lim krediti ajratildi. 2021-yildan boshlab esa muhtoj yolg'iz ayollar va boquvchisini yo'qotgan qizlarning oliy ta'limdagi kontrakt to'lovini

mahalliy hokimliklar tomonidan qoplab berish tizimi joriy etildi. Natijada 2021-2023-yillar davomida shunday vaziyatdagi 6 mingga yaqin talaba xotin-qizning kontrakt to'lovi qoplab berildi.

Shu tarzda xotin-qizlar ta'limiga e'tibor yil sayin kuchaymoqda. Natijada xotin-qizlar o'rtasida amaliy va aniq fanlarga qiziqish ortib bormoqda. Xususan, oliy o'quv yurtlarida tashkil olingan talabalarining STEAM ta'lim yo'nalishlari bo'yicha ko'rsatkichi tahligiga ko'ra, fizika yo'nalishida o'qiyotgan talabalarining 64 foizini xotin-qizlar tashkil etmoqda. Shuningdek, matematika (60 foiz), xizmat ko'rsatish (34 foiz), qishloq xo'jaligi (36 foiz), ishlab chiqarish va ishlov berish (32 foiz) kabi yo'nalishlar bo'yicha ham o'sish kuzatildi. Bu raqamlar qizlarning ta'lim va ilm-fanga intilishi kuchayib borayotganidan dalolat.

Qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish maqsadida doktorantura yo'nalishida ham xotin-qizlar uchun har yili kamida 300 tadan maqsadli kvota ajratilmoqda. Shu kunga qadar 890 xotin-qiz fan doktori va 4475 nafari falsafa doktori ilmiy darajasini qo'lga kiritdi. "Bir million dasturchi" loyihasi doirasida o'qigan yoshlarning 47 foizi qizlardir.

Albatta, bu raqamlar ortida o'z minglab oqila qizlarimiz, oilaga tayanch, jamiyatga suyanchilik bo'layotgan mo'tabar opa-singillarimiz taqdiri turibdi. Ular bu imkoniyatdan foydalanib, oilasida farovonlikni ta'minlash barobarida jamiyatdagi o'rni ham mustahkamlamoqda. Xotin-qizlarning bunday salmoqli qadami esa jamiyat ravnaqi va yurtimiz taraqqiyotining yangi bosqichiga paydevor bo'layotir.

Mahallabay ishlash
samarasi

Kasb va tadbirkorlik ko'nikmalariga o'rgatish orqali xotin-qizlar bandligini ta'minlash hamda salomatligini mustahkamlash ishlarini eng quyi bo'g'inda tizimli tashkil etish uchun 1600 dan ortiq mahallada markazlar faoliyati yo'lga qo'yildi. Markazlarda bitta loyiha doirasida 20 nafargacha xotin-qizning doimiy bandligini ta'minlash maqsadida ishga joylanadigan har bir ishsiz xotin-qiz uchun tadbirkorlik subyektlariga 3 million so'mdan oshmagan miqdordagi davlat granti ajratib kelinmoqda. Birgina 2023-yilda mazkur yo'nalishda namunalari deb topilgan 35 mahallada markazlar faoliyatini yo'lga qo'ygan tadbirkorlik subyektlariga jami 1 milliard 689 million so'm davlat granti mablag' ajratildi.

Olis va chekka hududlardagi mahallalarda kamida 20 nafar ehtiyomand xotin-qizni kasanachilik asosida ish bilan ta'minlagan tadbirkorlik subyektlari o'rtasida har yili qiymati 50 million (har birining) so'mlik loyihalar tanlovi o'tkazib kelinmoqda. Shu kabi ishlar samarasi o'laroq, so'nggi 5 yilda ishlab chiqarish ayollar safi ikki barobar kengayib, o'z biznesini yo'lga qo'ygan tadbirkor xotin-qizlar soni 205 mingdan oshdi. Birgina 2023-yilda 279 mingdan ziyod tadbirkorlik loyihasi 13 trillion so'mdan ortiq kredit, qariyb 57 ming xotin-qizga salkam 300 milliard so'm subsidiya ajratildi. 200 mingga yaqin ayol kasb-hunar

va tadbirkorlikka o'qitildi. 400 mingdan ortiq xotin-qiz ish bilan ta'minlandi.

Ayol-qizlarning ijtimoiy himoyasini ta'minlashdagi yana bir muhim jihat — uy-joy bilan ta'minlash masalasi. Xotin-qizlarga ajratilgan 6 trillion so'mlik ipoteka krediti hisobidan 25 mingdan ziyod oila o'z uyiga ega bo'ldi. 6200 ayolga uy-joy sharoitini yaxshilash va kreditning boshlang'ich badalini to'lash uchun 200 milliard so'm subsidiya ajratildi. Bu imkoniyat ayollarning hayotini yanada fayzli qilishda muhim omildir. Zero, bir ayolning uyli bo'lishi bir oila obod bo'lganini, uning bag'rida voyaga yetayotgan farzandlar uchun zarur sharoit yaratilganini anglatadi. Tabiiyki, bu oila ustuni — erkaklarning oilasi, farzandlari taqdiridan xotirjam bo'lib, o'z sohasida samarali ishlaydi uchun ham katta qulaylik yaratadi.

Yurtimizda gender tenglikni ta'minlash, ayollar manfaatini himoyalash borasida erishilayotgan natijalar — katta yutug'imiz. Bu jabhadagi ishlarimiz nafaqat xalqimiz, balki xalqaro hamjamiyatning ham e'tirofiga sazovor bo'layotir. Natijada jahon hamjamiyatining mamlakatimizdagi islohotlarga qiziqishi ortib bormoqda. Keyingi yillarda yurtimizda xalqaro ahmiyatga molik yirik anjumanlar tashkil etilayotgani fikrimiz tasdiq'idir.

Shu yil 13-14-may kunlari Samarqandda bo'lib o'tadigan nufuzli xalqaro anjuman — "Xotin-qizlarning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy huquq hamda imkoniyatlarini kengaytirish masalalariga mintaqaviy yondashuv" mavzusidagi birinchi Osiyo xotin-qizlari forumi ham shunday tadbirlardan.

Ushbu nufuzli xalqaro anjumanni tashkil etish tashabbusi BMT Bosh Assambleyasining 78-sessiyasida Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan edi. Bu tashabbusning BMT va mintaqa davlatlari tomonidan keng qo'llab-quvvatlangan O'zbekistondagi inson manfaatlariga yo'naltirilgan islohotlarning yana bir xalqaro e'tirofi bo'ldi.

Ikki kun davom etadigan forumda xotin-qizlarning fan, ta'lim va innovatsion faoliyatdagi ishtiroki hamda raqamli texnologiyalardan foydalanish, hozirgi global iqtisodiyotda ayollarning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish orqali kambag'allikni kamaytirish, tadbirkorlik, yetakchilik va innovatsiyalarga jalb etish kabi dolzarb masalalar muhokama qilindi. O'zaro tajriba hamda fikr almashildi. Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda xotin-qizlarning ishtiroki ko'rib chiqildi.

Mamlakatimizda oila, ayollar va bolalarni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga qaratilgan davlat va loyihalar davlatimiz rahbarining "Milliy siyosatimiz markazida turadigan eng ezgu maqsad — oilalar mustahkamligini, ayollarning huquqiy himoyasini va osoyishta hayotini ta'minlashdan iborat" degan so'zlarining amaliy natijasi, yaqqol isboti bo'layotgani quvonarli.

Jamiyatda gender tenglikka erishish borasidagi ana shunday xayrli ishlar, xalqaro aloqalar xalqimizning demokratik davlat, erkin fuqarolik jamiyati barpo etishdek ezgu niyatlarini ro'yobga chiqarish, yurtimiz taraqqiyotini yanada yuksaltirishda muhim zamin bo'ldi.



Yangicha tizim

TEJAMKOR XONADONGA NARX OSHGANI SEZILMAYDI

G'olib ABDUSALOMOV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

Boshlanishi 1-betda

Aholi iste'molchilari uchun elektr energiyasida oyiga 200 kVt/soatgacha, gaz bo'yicha martdan oktabrgacha, Qoraqalpog'iston va Xorazm viloyatida esa martdan sentabrgacha 100 kub metr gacha miqdor ijtimoiy norma etib belgilandi. Shuningdek, gaz bo'yicha isitish mavsumida noyabrdan fevralgacha, Qoraqalpog'iston va Xorazm viloyatida esa oktabr-fevral oralig'ida 500 kub metr gacha miqdor ijtimoiy normani o'z ichiga oladi. Shunda aholi uchun 1 kVt/soat elektr energiyasi narxi 295 so'mdan 450 so'mga, 1 kub metr gaz 380 so'mdan 650 so'mga oshdi. Ijtimoiy normadan ortig'ining narxi iste'mol hajmiga qarab tariflar bo'yicha oshib boraveradi.



EHTIYOJMANDLARGA YORDAM BERILADI

Ijtimoiy himoya milliy agentligi ma'lumotiga ko'ra, gaz va elektr energiyasi tariflari oshirilishi munosabati bilan 1,5 millionga yaqin muhojir oilaga yordam ko'rsatildi. Dastlab kambag'allik chegarasini aniqlash uchun foydalaniladigan minimal iste'mol xarajatlari yangilandi. 1 millionga yaqin fuqaro uchun eng kam pensiya va nafaqa miqdorlari oshirildi.

Shuningdek, isitish mavsumida ijtimoiy himoya yagona reyestri orqali bolalar nafaqasi va moddiy yordam tayinlangan oilalarga qo'shimcha

270 ming so'm miqdorida bir martalik kompensatsiya ajratiladi. Bu orqali kam ta'minlangan qariyb 1,5 millionga yaqin oilaning ijtimoiy himoyasi yaxshilanadi. Ushbu kompensatsiya "mahalla yetiligi" xulosasi asosida reyestrga kiritilmagan yana 200 mingdan ortiq ehtiyojmand oilaga ham to'lab beriladi.

Ishitish mavsumida kam ta'minlangan oilalarni qo'llab-quvvatlash maqsadida ularning elektr va gaz bo'yicha ijtimoiy me'yordan oshgan xarajatlari qisman qoplab berilishi ham ko'zda tutilgan.

UZOQ VAQT O'ZGARMAGAN NARX

Xo'sh, bu o'zgarishlarga zarurat bormidi? Albatta, bor edi. Sababi, O'zbekistonda gaz va elektr energiyasi narxi oxirgi marta 2019-yil avgust oyida oshgandi. Uzoq vaqt o'zgarishsiz qolgan narxga aholi ko'nikkan va endi keskin oshgandek tuyulishi tabiiy. Aholi tomonidan iste'mol qilingan elektr energiyasining amaldagi tariflari va haqiqiy tannarx o'rtasidagi tafovutni qoplash uchun davlat tomonidan subsidiyalar ajratib kelindi. Ko'rinib turibdiki, eski tariflar haqiqiy tannarxni qoplamaydi va bu sohalar subsidiyalar evaziga faoliyat yuritib kelmoqda.

Aslida, davlat byudjetidan bu sohalar subsidiyalar yangi ishlab chiqarish va uzatish quvvatlarini yaratish uchun beriladi. Buzir tarmoqlar yangilanmaydi, gaz va elektr energiyasini ishlab chiqarish ko'paymaydi, uzilishlar soni va muddati kundan kunga ortib boraveradi.

Yangi belgilangan narxlar evaziga iste'mol va haqiqiy tannarx o'rtasidagi tafovut bosqichma-bosqich bartaraf etiladi hamda

kelgusida asosiy e'tibor tizim infratuzilmasini modernizatsiya qilishga qaratiladi. Ana shunda davlat byudjetidan subsidiya ajratilishiga ham hojat qolmaydi. Albatta, bunga asta-sekin bo'lsa-da, erishiladi.

Shu vaqtgacha elektr energiyasi uchun belgilangan 295 so'mlik tarif bilan O'zbekiston 230 ta davlat ichida eng narxi past tarifi 15 ta davlat qatoriga kiradi. Bundan ham pastroq tariflar Butan, Iroq, Suriya, Sudan, Liviya, Efiopiya kabi davlatlarda bor.

Misol uchun, qo'shni Qozog'istonda o'rtacha 300 kVt/soat elektr energiyasini ishlatuvchi xonadon 1 kVt/soat uchun o'rtacha 790 so'm to'laydi, ya'ni bizdagidan ikki barobar qimmat. Ma'lumotlarga ko'ra, Saudiya Arabistonida xonadonlar uchun elektr energiyasi tarifi iste'mol darajasiga qarab o'zgarib boradi. Aholining iste'mol darajasiga oshgani sayin elektr energiyasi tariflari ham oshib borishi tizimi joriy qilingan.

FOYDA HAM, ZIYON HAM O'ZIMIZGA BOG'LIQ

Tizimda "aqli hisoblagich"lar joriy etilishi aholining gaz va elektr energiyasi sarfi va to'lovidagi mavjud muammolarga barham berdi. Ayniqsa, qarzdorlik eng og'irliq masalalardan edi. Gaz yoki elektr tarmoqlari idoralarda sarson bo'lib, to'lovlardagi farq yoki qarzdorlik bo'yicha mutasaddilar bilan ziddiyatlarga borib yurgan vaqtlarimiz ortda qoldi. Endi esa qarzdormisiz, "aqli hisoblagich" xonadoningizni tarmoqdan uzadi.

Har bir xonadonda ushbu manbalardan foydalanganda tejamkorlikka e'tibor qaratish muhim. To'g'risi, ayrim hovli yoki xonadonlarda kunduzi zarurat bo'lmaganda

ham chiroq yoki boshqa uskunalar yoniq holda qoldirilganiga ko'p guvoh bo'lganmiz. Tejamkor xonadonga narx oshgani unchalik ham sezilmaydi. Avval ortiqcha sarflarga yo'l qo'yg' fuqarolar esa endi bu masalaga mas'uliyatli bo'lishi talab etiladi. Aks holda, cho'ntakka ziyon.

— Avvalgi texnika vositalari bilan hozirgi uskunalar energiya sarfi bo'yicha farq qiladi, ya'ni ancha tejamkor. Misol uchun, tejamkor bir dona chiroqning sarf quvvati 10, televizorni 2,5, sovitkichniki 3 barobar kamaygan, lekin bir xonadonning oylik iste'moli o'rtacha 2,2 barobar ortgan. Navoiy viloyatida 263 ming 693 aholiga



joriy yilning aprel oyida 517 ming 753 kVt/soat, ya'ni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 26 ming 283 kVt/soat ko'p elektr energiyasi yetkazib berilgan. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, oyiga 1000 kVt/soat, 5000 kVt/soat va hatto undan ortiq iste'mol

qiladigan xonadonlar ham talaygina. "Buning asosiy sababi iste'mol madaniyatining yo'qligi, behuda va ortiqcha sarfga yo'l qo'yilishidir", deydi "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ Navoiy hududiy filiali rahbari Bobur Islomov.

TALAB KUNDAN KUNGA OSHMOQDA

Bugungi kunda gaz va elektr energiyasiga ehtiyoj tobora ortib borayotir. Aholi soni oshishi, turli sohalaridagi yangi loyihalar, tadbirkorlik rivojlanayotgani, yirik quvvatli korxonalar ishga tushishi va ishlab chiqarish ko'lamini kengayayotgani bu resurslarga talabni yanada ko'paytirmoqda.

Birgina elektr energiyasida aholi iste'moli o'sishini Navoiy viloyati bo'yicha tahlil qiladigan bo'lsak, 2014-yil davomida viloyatdagi 141 ming 860 aholi 185 million kVt/soat elektr energiyasi iste'mol qilib, bir xonadonga o'rtacha 108 kVt/soat to'g'ri kelgan.

2019-yilda 166 ming 812 aholi 249 million kVt/soat elektr energiyasi sarflagan va bir xonadonga o'rtacha 124 kVt/soatni tashkil etgan. 2023-yilda esa 263 ming 962 aholi 456 million kVt/soat elektr energiyasi iste'mol qilib, har bir aholi xonadoniga o'rtacha 165 kVt/soatdan to'g'ri kelgan. Bundan ko'rinib



turibdiki, yildan yilga aholining elektr energiya sarfi ortib bormoqda.

Gaz va elektr energiyasi tarmoqlari iqtisodiyot rivoji, hayot sifatini ta'minlaydigan asosiy manbalar bo'lgani bois, doimiy islohotlarga zarurat bor. Narxlar oshishi ham aynan ushbu islohotlarning bir qismidir.

QUYOSHLI XONADON

Quyosh panellarini 3 yil muddatga foizsiz, bo'lib to'lash sharti bilan sotib olishi, tijorat banklari tomonidan ajratiladigan kreditlardan foydalanishi mumkin. Bunda 5 kVt.gacha bo'lgan qismiga bo'lib to'lash imtiyozlari beriladi.

Bundan tashqari, fuqarolar o'z xonadonlariga o'rnatilgan quyosh panellaridan ishlab chiqarilgan elektr energiyasining ortig'ini davlatga sotib, daromad ham qilishi mumkin.

Yurtimiz energetika tizimi islohotlarning yangi bosqichiga kirdi. Gaz va elektr energiyasi narxlarini oshishi esa ushbu tarmoqlar uzluksiz ishlashi, infratuzilma yanada yaxshilanishiga xizmat qiladi. Muhimi, aholi ham o'z o'mida

iste'mol madaniyatiga qat'iy amal qilib, behuda va ortiqcha sarflarga yo'l qo'ymasa, ushbu tarmoqlarning uzluksiz va barqaror ishlashiga, sohalaridagi mavjud muammolarni bartaraf etilishiga hissa qo'shgan bo'ladi.



Bugunning gapi



Qishloq xo'jaligi, xususan, uning muhim tarmog'i bo'lgan paxtachilikda ahamiyatga molik ishlar qilinmoqda. Shu bilan birga, sohada yechimini kutayotgan muammolar ham yo'q emas. Shulardan biri sug'orish mavsumida suv yetishmasligidir.

Bu holat mamlakatimizda asrimiz avvalidanoq sezila boshlagan edi. Bunday sharoitda dehqonlarimiz mehnati, boy tajribasi bilan hamda ilm-fan yutuqlariga tayanib, tabiat inijliklarini yengishi dardkor. Binobarin, "O'zbekiston — 2030" strategiyasida suv ishlatish samaradorligini 25 foiz oshirish, qishloq xo'jaligi ekinlarini sug'orishda suv tejaydigan texnologiyalar bilan qamrab olingan yerning umumiy maydonini 2 million gektarga yetkazish, tuproq qoplamali kanallarni beton qoplamaga o'tkazish kabi vazifalar belgilangan bejiz emas.

Ilmiy tadqiqotlarga ko'ra, g'oz'a navi, tuproq va iqlim sharoitiga nisbatan o'simlikda bir gramm quruq modda to'planishi uchun 400-800 gramm suv sarflanadi. Bir gektar g'oz'a 1-2 chinbar chiqarganda bir kecha-kunduzda 10-12 kub metr, shonalash va hosil tugash davrida 80-90, hatto 100-120 kub metr, ko'saklar ochilishi paytida esa o'rtacha 30-40 kub metr suvni bug'latadi. Shu bois, sug'oriladigan har bir paykald

sug'orish muddati va me'yorini hududning suvi bilan ta'minlangani, tuproq xususiyati hamda sizot suv chuqurligi, minerallashuvini qat'iy hisobga olish lozim. Chunki o'simlik tuproqdagi suv bilan o'ziga kerakli makro va mikroelementlarni o'zlashtiradi. Fotosintez jarayoni ham aynan obihayot orqali kechadi. Bu shartlar g'oz'aning me'yorida o'sishi, ertaki va mo'l hosil to'planishini ta'minlaydi.

Tajribali suvchilar birinchi sug'orishni ko'pincha g'oz'a bargi to'q yashil tusga kirishiga qarab boshlaydi. Ilmiy-tadqiqot institutlari tavsiyasi asosida ish yuritganda esa g'oz'ani birinchi sug'orish muddati tuproqning namlik darajasiga qarab aniqlanadi.

Vegetatsiya davrida g'oz'ani keragidan ortiqcha sug'orish zararli. Vaholanki, bu ayrim fermer xo'jaliklarida kuzatiladigan holat. Natijada ortiqcha suv ichgan g'oz'a hosil tugunchalarini to'kib yuboradi va g'ovlay boshlaydi, saqlanib qolgan ko'saklar esa kech ochiladi. Demak, hosildorlikni

ILMIY YONDASHUV

HAR BIR SOHA TALAB ETAYOTGAN JARAYON



oshirish uchun g'oz'ani maromida sug'orish, chanqatib qo'ymaslik yoki keragidan ortiqcha sug'ormaslik zarur.

Sug'orish muddati yengil tuproqda g'oz'a gullashigacha 12-14 soat, o'tra va og'ir tuproqda 14-16, gullash davrida esa shunga mos ravishda 16-18 va 18-20 soatdan oshmasligi lozim. Bir gektar g'oz'ani sug'orishda sarflanadigan

umumiy suv miqdori yoki mavsum normasi o'simlik ko'karib chiqqanidan shonalaguncha 6-10 foiz, shonalashdan gullaguncha 12-16 foiz, gullashdan yetilguncha 50-60 foiz va yetilish davrida 16-20 foizni tashkil etadi.

Har bir sug'orishdan keyin g'oz'a qator orasi tuproq yetilishi bilan kesak hosil bo'lmay, mayin kultivatsiya qilinishi kerak. Bu tuproqda

to'plangan namlikni uzoqroq saqlashga olib keladi. Qolaversa, egatlar qisqaligi ekin maydonining bir tekis namlanishi va suv tejamkorligiga yaxshi ta'sir qiladi.

Shuni inobatga olib, suvni yaxshi o'tkazadigan o'tloq va yengil qumoq tuproqda g'oz'a qator oralari 60 santimetr maydonda egatlar uzunligi 60-70 metrdan, suvni sust shimadigan, og'ir tuproqli yerda esa 70-90 metr, qator oralari 90 santimetr bo'lgan maydonlarda esa tegishli ravishda 80-90 va 90-100 metrdan oshmasligi kerak. Qiya, irrigatsiya eroziyasi ro'y beradigan hududlarda egatlar uzunligi 50-60 metr bo'lsa, yetarli.

Qishloq xo'jaligida foydalanilayotgan suv resurslarining aksariyat qismi qo'shni mamlakatlarda shakllanadi. Shu bois, iste'mol qilinayotgan har bir kub metr suvdan samarali foydalanish shart. Xorijda, masalan, Ispaniyada bir gektar maydonda paxta yetishtirish uchun 4-5 ming kub metr suv ishlatiladi. O'zbekistonda esa bu miqdor 6-7 ming, hatto 12 ming kub metrni tashkil etayotgan holatlar mavjud. Bunda oqova suvning kanal, to'g'on va sug'orish tizimlari orqali dalaga yetib boruncha bug'lanishi ham hisobga olingan.

Ispaniyada suv paxta dalasiga maxsus omborlardan tuba orqali keltiriladi. Isroilda esa suv rezervuarlaridan shlang orqali g'oz'ani tomchilatib sug'orish uchun yetkazib beriladi. Bu mamlakatlarda g'oz'ani sug'orish uchun suv limit bilan tarqatiladi. Bir gektar g'oz'ani sug'orish uchun 4-5 ming kub metr suv ajratiladi. Qaysi fermer bundan ko'p sarflasa, o'z hisobidan pul to'laydi. Bu tajribani bizning sharoitimizda ham qo'llab ko'rsak bo'ladi. Bunda suv ta'minoti kam bo'lgan G'uzor, Jarqo'rg'on tumanlari hamda Farg'ona viloyatidagi ayrim hududlar yerini tajriba qilish mumkin.

Mamlakatimizda kelgusi olti yilda melioratsiya obyektlari qurish va rekonstruksiya qilish natijasida sug'oriladigan yerda sho'rlangan maydonni 1,7 million gektargacha kamaytirish, irrigatsiya tizimini modernizatsiya qilish hamda beton qoplamali kanallar ulushini 46 foizgacha yoki 13,2 ming kilometr gacha oshirish ko'zda tutilgan. Shuningdek, kuchli va o'tra sho'rlangan sug'oriladigan maydonni 430 ming gektargacha, yer osti suvi sathi muammoli holatda bo'lgan maydonni 773,4 ming gektargacha kamaytirish, kamida 100 ta yirik suv xo'jaligi obyektlarini avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimiga o'tkazish rejalashtirilgan.

Renat NAZAROV,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan qishloq xo'jaligi xodimi,
Jo'raxon ABDULLAYEV,
Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi bo'lim boshlig'i



Mansurbek JABBOROV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

Bahorning so'nggi oyi boshlandi. Kunlar isiyapti. Tabiiyki, bunday havoda odam chanqaydi, ichimlik bilan chanqog'ini bosishga harakat qiladi. Kursdoshlar bilan universitet yaqinidagi do'konga suv olishga kirdik. 2-3 yashar bolakayning "Quvvat beyadi!" degan gapi qulog'imga chalindi. Bolakay onasining hayron qarab turganini ko'rib, "O'yijon, menga ham shundan olib beying, menam kuchli bo'laman", deya chug'urldi o'z tilida. Onasi ertaga olib berishini aytib, bolani yupatganicha do'kondan chiqib ketdi. Bu paytda do'kondagi televizorda energetik ichimliklar reklamasini ko'rdim. "Ana sizga reklamani kuchi", deb qo'ydim ichimda. "Kuchga to'li, quvvatga boy bo'li, tetiklash!" kabi undovu ta'kidlar bilan qayta-qayta reklama qilinayotgan bu mahsulot mening ham e'tiborimni tortdi.

Bugun aksariyat yoshlarning qo'ldan energetik ichimlik tushmaydi. Maktab o'quvchilaridan tortib, ishdan charchagan, kam uxlagan, shunchaki chanqaganing ham qo'lda shu ichimlik. Do'konlarda oddiy suv, sharbat yoki gazli ichimlikdan ko'ra energetik ichimliklarning bozori chaqqon, turli-tumanidan taxlab tashlangan.

Mutaxassislar ushbu turdagi mahsulotlarning inson salomatligiga yaxshigina salbiy ta'siri borligidan ogohlantirmoqda. Qator davlatlarda bunday ichimlikka cheklav, taqiqlar qo'yilaydi. Shunga qaramay, ma'lumotlarga ko'ra, energetik ichimliklar bozori yiliga 13-15 foiz kengayib bormoqda. Asosiy iste'molchilar 18-35 yoshlilar. Ba'zi mamlakatlarda esa hatto 12 yoshdan energetik ichimliklar iste'mol qila boshlashadi.

16 yoshli bolaning o'limiga sabab bo'lgan

"Quvvatbaxsh" ichimliklar ilk bor 1960-yilda Yaponiyada dori sifatida yaratilgan. Keyinchalik Yevropa va AQSHda biznesmenlar ushbu mahsulotni ommalashtirish uchun tarkibiga bir qancha kimyoviy moddalar qo'shgan.

2014-yilga kelib, JSST o'smirlar o'rtasida energetik ichimliklar ko'p iste'mol qilinayotgani yuzasidan xavotirli bayonotlarini e'lon qila boshladi. 2017-yili esa AQSHda 16 yoshli o'smirlarning o'limiga ko'p miqdordagi energetik ichimlik iste'moli sabab bo'lgani ma'lum qilindi.

Jahon shifokor va diyetologlari "quvvat beradi", deya iddao qilinuvchi bunday ichimliklarning nafaqat bola yoki o'smir, har qanday organizm uchun o'ta zararli, hatto halokati ekanini qat'iy ta'kidlamoqda. Shunga qaramay, nafaqat yuritmiz, balki butun dunyoda bunday energiyalar talab tobora oshyapti. Talab bor joyda esa, albatta, taklif bo'ladi. Xo'sh energetik ichimliklar nima o'zi? Ular rostdan ham quvvatbaxshmi, tarkibi nimalardan iboratki, bunalchi vahimaga sabab bo'lsa?!

— Energetik ichimliklar tarkibidagi ko'p miqdordagi kofein yurak va qon tomirlarda jiddiy muammolarni keltirib chiqaradi, g'ayratyilay yurak ritmi, yurak urish tezligi, arterial qon bosimining oshishiga sabab bo'ladi, — deydi oliy toifali

shifokor Nasiba Ibrohimova. — Kofein har qanday energetik ichimlikning kuchli ta'siriga ega tarkibiy qismi. U organizmni energiya sarflashga safarbar qiluvchi psixotrop, o'rganib qolishga olib keluvchi moddalar qatoriga kiradi. Etanol bilan kofeinli ichimliklar iste'moli suyuqlik haydash ko'rsatkichini ikki barobar oshiradi. Bu esa buyrakning zo'rqi, vaqt o'tishi bilan buyrak yetishmovchiligiga olib keladi. Xotiraning sustlashishi va intellektual faolligining pasayishi kuzatiladi. Asta-sekin bu belgilar kuchayib boradi. Kofein oshqozon shirasi ishlab chiqarilishini kuchaytiradi. Bu



esa, o'z navbatida, oshqozon-ichak faoliyatida yomon oqibatlarga olib kelishi mumkin. Energetik ichimliklar tarkibiy qismi bo'lgan aksar moddalarning organizmda o'planishidan saraton o'smasi rivojlanishiga sabab bo'lishi ehtimoli mavjud. Shuningdek, ushbu ichimliklar diabet rivojlanishiga, semizlik, talvasa, to'satdan o'lim kabi xavflarga sabab bo'lishi mumkin.

Mutaxassislar vahimasi qanchalik o'rinli?

Amerikalik tadqiqotchilar energetik ichimliklar yurakdagi QT intervali (yurakning elektrik sistolasini) o'rtacha 2 soatda 10

millisoniyaga oshiradi, degan xulosaga keldi. "Agar millisoniyalarda o'lchanadigan ushbu vaqt oraliq'i haddan tashqari uzun yoki kalta bo'lsa, yurak urishida jiddiy o'zgarishlar yuz beradi. Bu esa hayot uchun xavfli bo'lgan aritmiyaga olib kelishi mumkin", deya ta'kidlamoqda olimlar.

— Energetik ichimliklar ta'siri haqida gap ketganda placebo effektini yoddan chiqarish zarur, — deydi psixolog Gulira'no Erolova. — Sababi, ichimlik reklamasini ta'sirida ichgan inson o'zini maksimal darajada tetiklanganday his qiladi. Chunki reklamada aynan shu jihatga urg'u beriladi. Oqibatda faqat shuni ichsam, quvvat olaman, degan fikr paydo bo'ladi va ichimlikka doimiy qaramlik kelib chiqadi. Ichganda esa ong ostida "Bo'ldi, hammasi joyga tushdi, men tinchlandim, holatim yaxshilandi" degan aldanchi xotirjamlik

Usti yaltiroq, oqibati qaltiroq

Bolalar va o'smirlar uchun kofein iste'molini haftada 60 milligrammdan oshirmaslik kerakligi ta'kidlanadi. Bitta energetik ichimlik tarkibida esa o'rtacha 30 milligramm kofein mavjud. Ichimlik qadog'ida 18 yoshga to'lmaganlarga ichish mumkin emasligi yozilgan bo'lsa-da, energiyalar reklamasini ekrandalarda namoyish etishni to'xtatish va savdo shoxobchalarida ko'zga tashlanmaydigan rastalarga qo'yish orqali ko'plab bolalarga bemaol sotilayotgan holatlarni ham ko'rish mumkin.

uyg'onadi. Vaholanki, aslida, unday bo'lmaydi. Ayniqsa, bunday ichimliklarga o'rganib qolish natijasida o'smirlar ko'plab asab kasalliklariga chalinishi mumkin. Sababi, bu ichimliklar insonda stress holatini keltirib chiqaradi. 18 yoshgacha bo'lganlarga bu ichimlikni ichish taqiqlanadi. Afsuski, maktablar yonidagi do'konlarda bolalarga bemaol sotilayotgan holatlarni ham ko'rish mumkin.

Bunday mahsulotlar sotuvda taqiq mavjud

Hozir dunyoning qator davlatlarida bunday mahsulotlar sotuviga cheklav o'rnatilgan. Masalan, aksariyat mamlakatlarda 18 yoshga

to'lmaganlarga energetik ichimlik sotish man qilingan. Daniya, Turkiya, Norvegiya, Islandiya va AQSHning ayrim shtatlarida ular savdosi butunlay taqiqlangan.

BAAda bu ichimlik iste'mol qiluvchining minimal yoshi 18 yosh edi. Qonunchilikka kiritilgan o'zgartirishlarga binoan endi 20 yosh deb belgilash kutilmoqda. Qo'shni Qirg'izistonda mamlakat hududiga energetik ichimliklar olib kirish, ishlab chiqarish va sotishni taqiqlovchi qonun loyihasi ko'rib chiqildi. Deputatlarning aytishicha, tibbiy amaliyotda energetik ichimliklar ichish natijasida yurak xastaligi holatlariga ko'p guvoh bo'lingan. Ular hozir qandil diabet bilan kasallangan bolalar ham ko'p, degan fikrda va shu bois, loyihani birinchtildan bo'lib ma'qullagan.

Yurtimizda ham bu borada qonuniy cheklavlar amalda. Unga ko'ra, energetik ichimliklarni 18 yoshga to'lmaganlarga sotish man etiladi. Shuningdek, bunday mahsulotlarni soat 7:00 dan 22:00 ga qadar reklama qilish taqiqlangan. Shunga qaramay, mahsulotlar reklamasiga cheklav qo'yilmagan.

Usti yaltiroq, oqibati qaltiroq

Bolalar va o'smirlar uchun kofein iste'molini haftada 60 milligrammdan oshirmaslik kerakligi ta'kidlanadi. Bitta energetik ichimlik tarkibida esa o'rtacha 30 milligramm kofein mavjud. Ichimlik qadog'ida 18 yoshga to'lmaganlarga ichish mumkin emasligi yozilgan bo'lsa-da, energiyalar reklamasini ekrandalarda namoyish etishni to'xtatish va savdo shoxobchalarida ko'zga tashlanmaydigan rastalarga qo'yish orqali ko'plab bolalarga bemaol sotilayotgan holatlarni ham ko'rish mumkin.

Farzandlarimiz kuch-quvvatini kimyoviy modda bilan boyitilgan ichimlikdan emas, tabiiy mahsulotlardan olsin. Qolaversa, sport bilan muntazam shug'ullanish ham odamni ancha tetiklantiradi, qo'shimcha quvvat beradi. Ertalabki badantariya esa kun bo'yi yaxshi kayfiyat bag'ishlaydi. Salomatlik — bebaho buyuk. Bu buyukni asrab-avaylash esa o'z qo'limizda.

Ilm-fan taraqqiyoti PEDAGOGIK TA'LIMNING STRATEGIK VAZIFASI

Shu yil 3-aprelda yangi Toshkent shahrida bir qancha obyektlar qurilishi boshlandi. Xususan, "Yangi O'zbekiston" universiteti va Toshkent davlat pedagogika universiteti kampuslari, Milliy kutubxona, Milliy teatr, Alisher Navoiy nomidagi xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, Adabiyot muzeyi, ijod maktabi hamda Milliy maqom markaziga tamal toshi qo'yildi.

Toshkent davlat pedagogika universitetining yangi kampusi 20 ming talabaga mo'ljallangan o'quv binolari, 5 ming kishilik yotoqxona, 300 o'rinni bog'cha, 616 o'rinni maktab, 588 o'rinni akademik litsey, zamonaviy sport kompleksi, madaniyat saroyi, amfiteatr va boshqa obyektlarni o'z ichiga oladi. Xorijdagi yuqori reytingli oliygo'har tajribasi asosida "bog'cha — maktab — universitet" yaxlitligida innovatsion pedagogik klaster tashkil etish rejalashtirilgan.

Bugun pedagoglarga mamlakatimizdagi ilg'or kuch sifatida e'tibor qaratilib, yangi O'zbekistonda barpo etuvchilar safida ko'rilmog'ida. Shu bois, o'qituvchilarni kasbiy faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan ishlariga, jumladan, hududlarni obodonlashtirish va qishloq xo'jaligi yumushlariga jalb etish qat'iy an taqiqlandi. Joriy

Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy-pedagogik jamoasi uzluksiz ta'lim va pedagogning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish — yangi texnologiya va o'qitish usullarini qo'llash, o'qitishning yangi formatlari, o'zaro ishonch va pedagogik hamkorlik, o'zini namoyon qilish uchun qulay didaktik mikromuhit yaratishga hissa qo'shmoqda.

Umumdidiaktik tendensiyalar majmuasida o'zini o'zi rivojlantirish va tarbiyalash trayektoriyasiga dinamik ustuvorlik berilmog'ida. Bu yo'nalishning asosiy vazifasi shaxsda axloqiy fazilatlar bilan bir qatorda intellektual ko'nikma, g'oya, tushuncha, nazariy bilimlarni boyitishdan iborat.

Ratsionalistik tendensiyalar amaliy natijadorligi va vertikal mobiligini ta'minlashda



yalining 1-fevralidan "Pedagogning maqomi to'g'risida" g'oni qonun kuchga kirdi.

O'quv jarayonida pedagogika fanini rivojlantirish tarixiy asoslari, zamonaviy ehtiyoj va istiqbol strategiyalari, shuningdek, ta'lim-tarbiya uyg'unligini ta'minlash muhim vazifalardan. Shu bois, mamlakatimizda pedagogika fanini rivojlantirish tarbiya va o'qitish usullari, innovatsion ta'lim resurslari, ilm-fan va ishlab chiqarish uyg'unligini ta'minlash, shuningdek, iqtisodiyotning hududlardagi real sektoriga chuqur kasbiy bilim va ko'nikmalarni egallagan xodimlarni tayyorlashga xizmat qilmoqda.

Pedagogika fani taraqqiyotining zamonaviy yo'nalish va natijalarini tahlil qilar ekanimiz, uning mazmunida milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligini ko'rish mumkin. Bugun maktab o'quvchilari o'rtasida funksional savodxonlikni shakllantirish uchun o'qituvchining tayyorgarligi nihoyatda zarur. Raqobatga boy zamonaviy ta'lim muhitida inson resurslari sifati ko'p jihatdan jamiyat raqobatbardoshligini belgilaydi.

XXI asrning birinchi choragida ta'limning raqamli transformatsiyasini ta'minlash, raqamli texnologiyalar integratsiyasiga erishish, masofaviy o'qitish va onlayn platformalarni intensiv yaratish, ta'limni individuallashtirish va virtual realistik asosida bilim berish imkoniyatini kengaytirishga ehtiyoj katta. Global rivojlanish bilan birga pedagogika fanini o'qitish sifatini oshirishda mental sog'liqni saqlash, stressni boshqarish va tartibga solish, o'zini refleksiyalash va boshqarish qobiliyatini rivojlantirish borish hamda psixologik holatni o'zlashtirishga didaktik yondashuv muhim.

Shu bois, ko'p madaniyatlilik sharoitida tolerantlik va bag'rikenglikni ta'minlash, o'qitish jarayoniga madaniy xilma-xillikni integratsiyalash, xalqaro hamkorlik va tajriba almashish, ta'lim paradigmalarini o'zgaruvchan dunyoga moslashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar soni hamda sifati oshdi.

ta'lim orqali insonning turli vaziyat va sharoitlarga moslashuviga erishishga ustuvorlik beriladi.

Fenomenologik tendensiyalar integrativ mazmunini ilg'or tajribalar hisobiga intensiv kengaytirishda gumanistik qarashlarga asoslanib, o'quv jarayoni insonning qiziqishi, moyilligi va qobiliyatini hisobga olgan holda olib boriladi.


Transformatsion tendensiyalarda esa ta'lim-tarbiya, umumiylik va xususiylik, umumbashariylik va milliylik jarayoni pedagogik o'zgarishlar katalizatori orqali ta'limni xususiyashtirishga o'tish hamda o'qitishda sun'iy intellektidan foydalanishga ustuvorlik beriladi.

Pedagogikaning integrativlik imkoniyatlaridan ratsional foydalanishda aniq, tabiiy, fundamental va ijtimoiy-gumanitar fanlar mazmunini pedagogikaga dinamik transformatsiyalash asosida kadrlar tayyorlashga e'tibor qaratiladi.

Mana shu vazifalarni uddalashga Toshkent davlat pedagogika universitetining ilmiy va moddiy-texnik bazasi to'liq safarbar qilingan. Universitetni rivojlantirish strategiyasi va maqsadli ko'rsatkichlari aniq belgilangan hamda ilmiy jamoa imkoniyatlaridan unumli foydalanish natijasida oxirgi bir yilda ilmiy salohiyat 38 foizdan 60 foizga ko'tarildi. Oliy ta'lim muassasasida fan doktorlari 62, fan nomzodlari esa 386 nafarga yetdi. Natijada universitet mamlakatimizdagi 30 ta oliy ta'lim muassasasi qatorida barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirishda OTMLar ta'sirini baholovchi THE Impact Rankings xalqaro reytingidagi joy oldi. Eng muhimi, QS World University Rankings: Asia 2023 reytingida Toshkent davlat pedagogika universiteti kuchli OTMLar qatoridan o'rin egalladi.

Barno ABDULLAYEVA,
pedagogika fanlari doktori,
professor

Kun g'arbga og'gan. Bir necha kundan buyon qistovi tugamayotgan ijara pulini uzish uchun "kalbobo"ni izlab yo'lga tushdim. Bir oz oldin sevalab o'tgan yomg'irdan so'ng yoqimli havo dimoqni achishtiradi. Uyidan chayon chiqqanday shahar ko'chalarida odam zich. Kimdir bola-chaqasini aylantiradi, yana kimdir ancha yildan beri poytaxtga qadam bosmagan qarindoshlariga ulkan-ulkan binolar hayratini ulashadi. Odamzod qiziq, kimdir shaharga talpinsa, yana kimdir kovushini bir necha oyga qolmasdan qishloqqa to'g'rilyadi.



"Kalbobo"ning domiga tushgan "saxiy" uy egalarning har qadama uchragan e'lonlari viloyatdan shaharni orzulang kelgan unchamuncha odamni o'ylantirib qo'yadi. Bosh suqishga joy bor, deya shukrni aytib, o'ylik poylab yashayotganlar uchun maosh beriladigan kun bayram va aza: o'ng qo'ling bilan pul olsang, chap qo'ling bilan uy egasiga uzatasan. Shu kabi xayollar bilan bankomatdan pul olar ekanman, ortimda hassaning to'qillashi eshitildi. Oldiniga e'tibor bermadim. Shaharda hassa suyangon odamlar anqonung urug'i bo'lsa. Pul ola turib, o'zimni bu ovoz eshitilmayotganiga ishonitirib, ortga o'girilsam, hassaga suyangan 50 yoshlar chamasi, sarg'ishdan kelgan, qotma, novcha odam turibdi.

— Telefoningizni berib tura olasizmi? — dedi. Oldiniga yoshi katta bo'la turib, meni "siz"lashi erish tuyuldi, uning ajin bosgan yuzlari, uniqib ketgan ust-boshini ko'rib, bu kishi, balki, shaharga yangidir, deya xayoldan o'tkazdim. Do'stining raqamini terib, telefonimni uzatdim. Ularning gurungidan bu odamning pulga muhtojligi ko'rinib turardi. Uzoqqa bormadi. Telefoni menga uzatar ekan, nigohlari yer chizdi. Bir dam kvartiraning pulini olib borish uchun vaqt ketayotganini o'ylasam, yana bir xayolda ichimdagi ovoz bu

odamni shu holda tashlab ketib bo'lmagilini aytardi.

— Tinchlikmi, aka, — deya yuzlandim.

U kishi ham shuni poylab turgan ekan, shekilli, dardini doston qila boshladi.

— Ey uka, nimasini aytasiz, qizimni Toshkentga operatsiya qilish uchun olib kelgandim. Dorilarga ozroq pul yetmay qoldi. Kechgacha operatsiyaga kirishi kerak.

U birdam mahzun holga tushdi.

— Viloyatdan pochta qilib yuborishyapti. Ammo operatsiya boshlanguncha yetkazib kela olmaydi. Men esa bu gal uy egasining kundasiga bosh qo'ya turib, oqlanishimning sababi bo'lmish so'nggi so'zini nima boshlashimni o'ylardim. U bu orada yashash viloyatini, qishloq'ini, ko'chasini ham oq salftekaga qing'ir-qiyshiq qilib yozib bo'lgandim.

Avtobus bekati tomon yurur ekanman, ichimda bir ovoz qilgan ishimdan mamnunlikni olqishlansa, yana biri yoqamdan tutib, uy egasining kundasiga boshlab borardi.

Dam olish kuni. "Otang bozor, onang bozor", deya ro'zg'orlik qilishga tushdim. G'ala-g'ovur. Birov-birovning gapini eshita, qani. Bu shovqinlar ummonida ikki kundan buyon oq salftekadagi telefon raqami ishlayotganini o'ylab ichimdan ezilaman. Yana yaxshi gumonga boraman: balki qizi bilan bo'lib unutib qo'ygandir. Odam o'zidan o'tganini o'zi biladi. Hech kimning boshiga dard solmasin. Bir tomondan, uning qizi sog'ayib ketishini ich-ichimdan istayman.

Qo'limdagi bozorlikni yerga qo'yib, avtobus poylab boshladim. Uy egasining to'lov uchun yana bir-ikki kunlik "in'om"ni alqay tursam, orqa tomondan tanish ovoz eshitildi. Oldiniga ko'zimni bir necha marta uqalab, yuzimga tarsaki ham urib ko'rdim. Yo'q, bo'lmadi. Xuddi o'zi. Faqat birgina belgi uni avvalgi holatidan begona qilib turibdi — hassasi yo'q. Qo'ldagi oq salfteka yangilangan. O'sha ruckka. O'sha uniqib ketgan kiyim. Yonidagi odam ham men kabi allaqachon qizil chiziqdan o'tgandi...


Sardor TOLLIBOYEV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

Tadqiqot

BOBURSHUNOSLIKDAGI NAVBATDAGI YIRIK YUTUQ

Vahob RAHMONOV, filologiya fanlari doktori, professor

Zahiriddin Muhammad Bobur va boburiylarning jahon tarixi hamda tamaddunidagi o'rnini beqiyos. Uilyam Rashbruk Bobur Mirzoni "O'n oltinchi asr imperiya bunyodkori", deb ulug'lagani bejiz emas. Hindistonning eng zarvarli tarixi — turk boburiylar davri bunyodkorliklar zamoni sifatida dunyo sharqshunoslari orasida ma'lum va mashhur. Bu o'lkaning barcha hududidagi eng buyuk me'moriy obida va bog'larning ko'p qismi Bobur va boburiylar davri mahsulidir. Dehli'dagi Humoyun Mirzo maqbarasi va Agradagi Toj mahal me'moriy yodgorligi ansambllari shular jumlasidan.



boburshunosligida qo'lga kiritilgan yutuqlar, xususan, O'zbekiston, Rossiya, Ozarbayjon, Turkmaniston, Tojikiston va Tatariston boburshunoslarining asarlari jamlangan.

Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodining ilmiy talqini ajib tarzda juda tadrifiy, tartibli kechdi, oldin ikkita lug'at tuzildi: "Zahiriddin Muhammad Bobur asarlari uchun lug'at", "Boburnoma" uchun qisqacha lug'at.

2000-yildan boshlab Bobur asarlari bibliografiyasini tuzishga sermahsul va zukko sharqshunos Shokirxo'ja Rustamxo'jayev kirishdi. Bu olim dastlab Bobur xalqaro jamoat fondi tasarrufidagi "Bobur va jahon madaniyati" muzeyidagi temuriylar va boburiylarga tegishli kitoblar bibliografiyasini tuzdi. So'ng bibliograf Zuhra Berdiyeva bilan hamkorlikda O'zbekistondagi temuriylar va boburiylar haqidagi kitoblar bibliografiyasini tartibлади.

Nihoyat Rossiya Fanlar akademiyasi Turkshunoslik instituti va Bobur nomli xalqaro jamoat fondi hamkorligida jahon boburiylariga doir asarlar bibliografiyasini tuzildi. Moskva'da nashr etilgan "Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburiylar. Bibliografiya" nomli yirik kitob ham Sh.Rustamxo'jayev mehnatining natijasi o'laroq dunyo yuzini ko'rdi. Ushbu tadqiqotchi "Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburiylar" qomusiy, ilmiy va ilmiy-ommabop maqolalar to'plamining ham tuzuvchisi bo'ldi.

"Zahiriddin Muhammad Bobur ensiklopediya"si Bobur nomli xalqaro jamoat fondi rayosati va raisi Zokirjon Mashrabov tashabbusi hamda jonbozligi, moddiy-ma'naviy homiyligi tufayli O'zbekiston va jahon boburshunoslari mehnati natijasi bo'lib, yetti yilda tayyorlandi va ikki marotaba chop etildi.



"Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburiylar" qomusiy, ilmiy va ilmiy-ommabop maqolalar to'plamini qo'lga olgan kishi varaqlab, birdan

Bir asr muddatda o'zbek adabiyotshunosligi degan ulkan daraxtda bir necha yirik shoxlar yetilib, bo'y cho'zib, ko'zga baralla tashlandi. Ushbu fan shoxboshchalari — navoiyshunoslik, boburshunoslik, folklorshunoslik, manbashunoslik, matnshunoslik, tarjimonshunoslik.

Mazkur fan tarmoqlarining uzil-kesil shakllanganlari avval navoiyshunoslik (XX asming oltinchi yillari), so'ng boburshunoslik (XXI asming o'ninchi yillari) bo'ldi.

Chunki bu muddatda Navoiy va Bobur asarlari izohli lug'atlari tuzildi, qomusiy lug'atlar yaratildi, bibliografiyalar yozildi, ensiklopediyalar tayyorlandi. Alisher Navoiyning ko'p jildli asarlari besh marotaba (1940-yili 3 jildli, 1960-yili 15 jildli, 1987-2003-yillari 20 jildli, 2011-2012-yillari 10 jildli) chop etildi.

XX asming 40-, 60-, 80-yillari, XXI asming o'ninchi yillari, 2011, 2012-yillarda Alisher Navoiyning ko'p jildli asarlari nashr etildi. XX asming 60-yillarida Zahiriddin Muhammad Boburning "Asarlar"i 3 jild va XXI asming 20-yillarida "Kulliyot"i 6 jild chop etildi.

Birgina farq borki, Navoiy qomusi nashr etilmadi. "Zahiriddin Muhammad Bobur ensiklopediya"si ikki marotaba yirik adadda olam yuzini ko'rdi.

Navoiyshunoslikdagi yutuqlarning haddi a'loisi 2022-yilda nashr etilgan "Istiqlol davri o'zbek navoiyshunoslari asarlarining o'ttiz jildligi" va "G'aroyib us-sig'ar" devonining



o'n kitobdagi sharhi bo'ldi, desak istiqloq davri navoiyshunosligi taraqqiyotining nechog'liq miqyosli va teran ekani yaqqol namoyon bo'ladi.

Xuddi ana shunday manzara boburshunoslikda ham yuz ko'rsatdi. "Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburiylar" qomusiy, ilmiy va ilmiy-ommabop maqolalar to'plami besh jildligida jahon

shoshib qoladi. Chunki bir shaxs, bir shahar... nomi qatorasiga va bir necha tillarda yozilgan. Har bir maqola so'ngiga ahamiyat bergan kishigina bu "sir"ni tushunib yetadi. Bir mamba haqida o'ntagacha maqola berilgan. Hatto kitob nomlari bir xil... Biroq nashr yillari farq qiladi. Mazmun va hajmdagi tafovut ko'zga aniq tashlanadi.



Bu "sir" shundaki, muayyan shaxs, shahar yo davlat haqidagi ma'lumotlar xronologik, tadrifiy ravishda berilgan. Chunonchi "Rossiya" qomusida u yoki bu shahar haqidagi ma'lumot "Boburnoma"dagi ma'lumot bilan cheklangan bo'lsa, keyingi mabalarda mazkur ma'lumotlar boyib boradi.

Chunki birgina Bobur yoki unga aloqador kishilar haqidagi ma'lumotlar jurnal, gazeta, maktab va oliy ta'lim darsliklarining turli nashrlari asosida takroran yilma-yil berilaveradi. Demak, "Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburiylar" qomusiy, ilmiy va ilmiy-ommabop maqolalar to'plami o'zida boburshunoslikning ilk namunalarini, shakllanishi, taraqqiyoti bosqichlari — tadrifiy evolyutsiyasini o'zida mujassamlashtirgan.

Kamina bu besh jildni "jahon boburshunosligi qomusi" deb atagan bo'lardim. Chunki unda, asosan, O'zbekiston, Rossiya, Tojikiston, Turkmaniston, Ukraina, Belarus, Ozarbayjon, Angliya, AQSH, qisman, Hindiston boburshunoslari maqolalari jamlangan.

Tuzuvchi-muallif, sharqshunos olim Sh.Rustamxo'jayev har bir maqoladagi so'z (imloviy), tarixiy sana yoki boshqa biror ilmiy nuqson yoxud boshqacha talqin uch kelsa, qomusda ularni isloh qilib, haqiqiy ilmiy istilohi holati haqida tushuncha berib boradi. Masalan, manbadagi "Shoh Akbar 1598-yilda shahar qal'asi ichida Devoni Avom maqbarasi qarshisida masjid qurdi" degan gapdagi "Devoni Avom maqbarasi" so'zlariga hoshiyada quyidagicha izoh va tuzatish kiritildi:

"Manbada "Devoni Avom maqbarasi" tarzida xato yozilgan. Zero, u maqbara emas, balki podshohning umumiy majlislar zalisi... "Devoni Om" bo'lishi zarur. ("Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburiylar" qomusiy, ilmiy va ilmiy-ommabop maqolalar to'plami. 3-jild, 373-bet). Yoki manbadagi: "Qabr toshiga Allohning 99 xil sifati o'yib ishlangan" degan gapga tuzuvchi-muallif hoshiyada shunday izoh beradi:

"Manbadagi "Allohning 99 xil sifati" to'g'ri emas, balki Qur'oni karim va sahih hadislarda yozilishicha, "Alloh taoloning 99 go'zal ismi" (3-jild, 374-bet).

"Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburiylar" qomusiy, ilmiy va ilmiy-ommabop maqolalar to'plami Bobur va boburiylarning ko'proq Hindiston va Pokistondagi hayoti hamda faoliyati haqida siyosiy, iqtisodiy, etnografik, ma'naviy-maishiy, san'at va adabiyot, urf-odatlar xususida ham har tomonlama to'la ma'lumot beradi.

Ushbu kitoblardan Sharq mamlakatlari yuzlab taniqli kishilar, hatto biz bilishni istagan, ammo fors mabalarida ham topilmaydigan ma'lumotlar uchraydi. Chunonchi, Sulton Mahmud va uning sevimli quli Abu Najm Ayoz haqida o'nlab rivoyat, hikoyat, donstolar yozilgan. Biroq Ayoz faoliyati, qayerlarda bo'lgani borasida hech qanday ma'lumotga ega emas edik. Ushbu to'plamdagi ma'lumot bizni hayratga soldi:

"Laho'r azaldan go'zal bog'lari bilan mashhur. Shaharning darvo'zida joylashuvi hukmdorlar va go'zallik oshiqlariga estetik didini ro'yogga chiqarish imkonini yaratib,

tarixiy mabalar musulmonlar hukmron bo'lgan davrlarda 36 ta, sikhlar davrida 23 ta va inglizlar davrida 3 ta bog' barpo etilganidan dalolat beradi.

Tarixiy mabalarda yozilishicha, Mahmud G'aznaviyning sodiq quli, shahar hokimi Ayoz Malik birinchilardan bo'lib bog' qurgan" ("Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburiylar" qomusiy, ilmiy va ilmiy-ommabop maqolalar to'plami, 3-jild, 372-bet).

Yoki: "Laho'r qal'asi. Tarixiy va me'morchilik nuqtayi nazaridan qal'a juda ko'p voqealarni boshdan kechirgan va deyarli ming yillik tarixga ega... Mahmud G'aznaviyning yaqinlaridan Ayoz Malik shaharga hokim qilib tayinlangach, u shaharni loydan qayta qurgan va "Mahmud nur" deb atagan" (3-jild, 375-376-betlar).

Tuzuvchi-muallif Sh.Rustamxo'jayev Bobur va boburiylarga ulkan ehtiromi tufayli ushbu yirik sulola vakillarining ijodi, faoliyati, tuzumi va tumani, siyosati va harbiy harakatlari, bunyod etgan shahar va me'moriy obidalari, bog'rog'larini, oilaviy munosabatlari ikki-chikirigacha aks etgan ma'lumotlarni o'zbek, hind, ingliz, nemis, fransuz, urdu, fors, rus, tatar, belarus, ukrain, ozarbayjon, turk, tojik tillaridagi qomus, to'plam, albom, jurnal, kitob, gazetalardagi materiallarni sinchiklab o'rganib, besh jildga jamlagan. Go'yo bu kishi Olimjon Davlatovning navoiyshunoslikdagi ishini boburshunoslikda bajargan.

"Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburiylar" to'plami Bobur va boburiylar bo'lgan, zabt etgan va qurdirgan shahar, bog'rog'lar haqida, hukmdorlar shaxsi va murakkab qismati, tantanasi va tanazzuli, buyuk himmati va nochorligi... xullas, ularni hayoti va faoliyati borasida yuz xil qarashdagi mualliflarning aytgan, yozgan fikrlari, dalillari xazinasini o'zida jamlagan qomuslar qomusidir.

Bungacha biz, boburshunoslar bu ma'lumotlardan bir hovuchinasini O'zbekistondagi nashrlar asosida bilar edik, xolos. Endi bu yirik sulola faoliyatini jahon boburshunoslari ko'rgan-bilganlarigacha kuzatish imkoniyatiga egamiz.


Ushbu besh jildli qomusni o'qir ekanman, taassurotdan tufayli shunday fikr tut'ildi: Sh.Rustamxo'jayev bu ezu ishini davom ettirsa, yana o'n-o'n beshta shunday adabiy ilmiy qasr bunyod eta oladi. Chunki bu kerak.

Bu kitoblar jahon boburshunoslarining boburshunoslikka qo'shgan hissasidan namunalaridir. Chunki jahonning XX-XXI asrdagi mashhur boburshunoslari Eyji Mano, Uiler Tekston, Shafiq Yorqin, Halim Yorqin, Bilol Yujel, Aziz Qayumov, Saidbek Hasanov, Hasan Qudratilayev va shular safidagi yuzlab jahon va o'zbek boburshunoslari asarlariga murojaat etilsa, "Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburiylar" qomusi 20-30 jildga yetkazilsa, ajab emas.

boburshunos Shokirxon Rustamxo'jayevning ulkan armug'oni bo'ldi.

To'plovchimiz oddiy yig'uvchi emas, olimona zakovat va bilimdonlik bilan vazifasi ijrosiga kirishgan. Kurganidan ham kattaroq yutuqqa erishgan bilan uni tabriklaymiz.

Bunday ishlarga tanqidiy nuqtayi nazar bilan ham qaramaslik kerak. Mazkur ishni



tuzuvchimiz imkoni darajasida yaxshi bajargan. Uning o'nga yaqin tilni yaxshi bilishi, zakosi va tolmis g'ayratlanligiga qarab havasimiz keladi.

Bu kitoblarning har biriga kelgusida yirik so'zboshlar yozilmog'i va har bir muqaddimada Bobur asarlari va boburshunoslikdagi chin va nuqsonsiz nuqtayi nazardan sof ilmiy aniqlikni talab qiluvchi bahsli masalalarni ko'proq qo'ya bilmoq kerak.

Chunonchi, shu muammolardan biri — Boburning Kobulga ko'milishi haqidagi masala yuzlab ilmiy maqola va kitoblarda "Vasiyatiga ko'ra, Bobur Kobulda dafn etilgan" degan ma'lumot beriladi. Holbuki, bu ma'lumot quyidagi sabablarga ko'ra to'g'ri emas: birinchidan, Boburning bu haqda hech qanday vasiyati yo'q (na yozma, na og'zaki); ikkinchidan, bunday vasiyat bo'lsa, Bobur jasadi uch oy maxsus mo'da saqlanmasdi. Chunki uch oyda Agrad shahanshoh Boburga munosib maqbara bunyod etildi; uchinchidan, Bobur islomiy e'tiqodli (marhum o'lgan joyida ko'milmog'i lozim), vorislarini sevuvchi va ular ziyoratiga ishonuvchi bo'lgani uchun agar vasiyat qilsa, "Meni Agrad ko'minglar", degan bo'lardi. Chunki o'z sulolasi shu ulkan mamlakatda hukm surishini o'tkir aqli bilan tasavvur eta olardi.

Unda nega Bobur xoki Kobulga ko'chirildi? O'rta asrlarda sulolalar hukmronligi almashganda yirik buzg'unchiliklar sodir bo'lardi. Hatto Muhammad Haydar Mirzo Kashmiri egallaganda, Kashmir musulmonlari shia mazhabida bo'lgani uchun e'tiqodidan qaytmaganlarni qatl ettirgan. Uning tarafdorlari Shayx Ibroqiy aziz insonni qabridan chiqarib, o'tda yoqqan.

Boburning kenja zavjasi Bibi Muborika ana shunday hodisalarning oldini olish uchun yangi hukmdor (Boburning sobiq navkari Faridxon) Sherxon Surdan Boburning xokini Kobulga olib ketishga ruxsat olgan. Chunki Humoyun Mirzo Sherxonning yengilib, Eronga qochib ketgan edi.

Bunday muammolar "Boburnoma"ning o'zida ham oz emas. Chunki asarda shayboniylar bilan qizilboshlar jangida ko'p sultonlar qatori Ubaydxon (Ubayxon) ham o'ldirilgan yozilgan. Holbuki, Ubaydullaxon Bobur Mirzodan ancha keyin vafot etgan. Yoki Muhammad Haydar Mirzo Yorkentga kuzdi, degan ma'lumot ham to'g'ri emas. U Bobur hukmdorining Andijonga — pochchasi Sulton Saidxon dargohiga borib, ikki yildan so'ng Sulton Saidxon bilan Yorkentga harbiy yurishga jo'nagan.

Xullas, Sh.Rustamxo'jayevning ushbu aziz xizmati adabiyotshunoslikka, xususan, boburshunoslikka qo'shgan yirik olimona hissa sifatida har tomonlama tabriklashga arziydi.

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalarini tahririyati DM

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

MUASSIS: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqrib qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Kolorpak" MCHJ mas'ul.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 1577. 44034 nusxada bosildi. Hajmi — 3 taqob. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2. Bahosi kelishilgan narxda.

Navbatchi muharrir: Munajat Mo'minova Musahhif: Asliddin Abdurazaqov Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzillimiz: 100060, Toshkent shahri, Shahrisabz ko'chasi, 85-uy